**Uslubiy ko`rsatma**


**Djumayeva N. E.,**
**Sultonov A.I.**


# GURUH MURABBIYLARI UCHUN

**(uslubiy ko‘rsatma)**


| | |
|---|---|
| Texnik muharrir: | **M. Raxmatov** |
| Muharrir**:** | **M.Primova** |

Terishga 2.07.2015 yilda berildi. Bosishga 17.07.2015 yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16. Nashr bosma tabog‘i 5.65. № 27– буюртма 100 nusxada. Erkin narxda.

Qarshi Davlat universiteti
kichik bosmaxonasida bosildi.

Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.



DJUMAYEVA N.E.
SULTONOV A.I.




# GURUH MURABBIYLARI UCHUN

“Guruh murabbiylari uchun” uslubiy qo‘rsatma O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunlar, “Yoshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Sog‘lom bola yili” davlat dasturlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tegishli buyruqlari, Qarshi davlat universitetining Ustavi, "Ustoz-shogird" tizimi to‘g‘risidagi Nizomi, “Odob-axloq qoidalari", “Talabalar turar joyi “Nizomi”, “Ichki tartib qoidalari” hamda umume’tirof etilgan ma’naviy va axloqiy tamoyillar asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatmada guruh murabbiysi olib boradigan tarbiyaviy ishlar mohiyati, mazmuni, shakl va metodlari, guruh murabbiysi, guruh jamoasi ishini rejalashtirish, tashkil etish, talabani va guruh jamoasini o‘rganish, jipslashtirish, ota-onalar bilan ishlash, talabalar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlar, odob-axloq qoidalari, guruh talabalarining faoliyati, ularning internet tarmoqlaridan foydalanishini tashkil etish, guruh murabbiysining ijarada yashovchi talabalar bilan, talabalar turar joyida yashovchi talabalar bilan, oilali talabalar bilan, nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan, guruh jamoasidagi qizlar bilan ishlashi kabi bir qator masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Mas’ul muharrir:
**Jo‘rayev B.X.** - Qarshi davlat universiteti ma’naviy - ma’rifiy ishlar prorektori

Taqrizchilar:
**Choriyev A.Ch**. - pedagogika fanlari doktori, professor
**Ochilova N.M**. - Qarshi pedagogika kolleji Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma Qarshi davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2015 yil 29 – maydagi yig‘ilishi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etiladi.

## KIRISH

## MUNDARIJA:

**KIRISH**………………………………………………………….. 3
**I BOB. GURUH MURABBIYLARI FAOLIYATI**
1.1.Guruh murabbiylari ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari……. ………5
1.2. Guruh murabbiylarining asosiy vazifalari va ular shaxsiga qo‘yiladigan talablar……………………….……….. …..8
**II BOB. GURUH MURABBIYLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISH**
2.1.Guruh jamoasida g‘oyaviy - siyosiy va axloqiy tarbiyani tashkil etish …………………………………...………14
2.2.Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo‘yiladigan pedagogik talablar……….……………………………..18
2.3. Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo‘yilgan talablar…………………………………………………22
2.4. Guruh murabbiysining shaxs va jamoani o‘rganishi va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi……………………….. 27
**III BOB. GURUH MURABBIYSINING TARBIYAVIY ISH REJASI.**
3.1. Guruh jamoasini o‘rganishnning namunaviy dasturi.. …...30
3.2. Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish…….31
3.3.Guruh rahbarining oila va jamoatchilikhamkorligida olib boradigan pedagogik faoliyati………… ………….. ….32
3.4. Darsdan tashqari vaqtdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar…………………………. ….35
**XULOSA**…………………………………………………… 39
**ILOVALAR**…………………………………………………... 41
**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT**I….. ………..93

21. Xidirova B. Ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyani qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari. –T.: Fan va texnologiya. 2009.
22. Shodmonova Sh. va boshk. Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008, 186 bet.
23. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2005. 7-8-tomlari.
24. Hayitov A. Guruh rahbari ish tajribasidan. –T.:“Yangi asr avlodi”. 2005.
25. Hayitov A. Sinf rahbari. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2008.
26. http://pedagog.uz
27. www.bilimdon uz
28. www.tgeu.uz



*«Mamlakatimizni bundan keyingi taraqqiyotiga ta’lim tizimini yangilamasdan, uni rivojlantirmasdan, ya’ni mustaqil jamiyatning yangi talablariga va yangicha o‘lchovlariga to‘la javob beradigan yangi fuqaroni shakllantirmasdan turib erishib bo‘lmaydi».*

**I.Karimov**

Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish - O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida mustaqillik va ozodlik tuyg‘usi bilan birgalikda yetilgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqinlik, Vatan go‘zalligidan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziq beradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi .

Ma’naviyati yuksak shaxslargina yurtni jahonga tanitishga qodirdirlar. Shaxsni esa uning ma’naviy qiyofasi tanitadi. Ma’naviyat tarbiyadan boshlanadi. Ta’lim-tarbiyasiz ma’naviyatning bo‘lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!» degan so‘zlari fikrimizga dalil bo‘ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk shaxs yaratishga e’tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

Jamiyat va davlat qo‘yadigan talablarni bajarish, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” g‘oyalarini amaliyotga tadbiq etish,

respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan bugungi kunda uzluksiz ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi, kasbiy mahoratlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish mahoratiga bog'liqdir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qabul qilinayotgan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator meyoriy hujjatlar, jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iktisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv maskanlarining nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda huquq - tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamgarmalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorliqsa ish olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Oliy ta'lim tizimida talaba hayotida, ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda guruh murabbiysining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor. U oliy ta'lim muassasasida juda muhim va ma'suliyatli qiyofadir. Guruh murabbiysi faoliyatiniig aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaralganda, uni guruhning bosh tarbiyachisi, murabbiysi, deyish mumkin. U o'z guruh jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi, o'qituvchilar, "Kamolot" tashkilotlari, ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan aloqa bog'lab, guruhdagi umumiy tarbiyaviy jarayonga rahbarlik qiladi.

Guruh murabbiysi vazifasini, asosan fan o'qituvchilari bajarishadi. Ularning ko'pchiligi bu ishda yetarlicha tajribaga ega emaslar va amaliy yordamga muhtojdirlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va uni to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida, biz quyida guruh murabbiysi olib boradigan tarbiyaviy ishlar mohiyati, mazmuni, shakl va metodlari, guruh murabbiysi, guruh jamoasi ishini rejalashtirish, tashkil etish, talabani va guruh jamoasini o'rganish, jipslashtirish, ota-onalar bilan ishlash, talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlar, odob-axloq qoidalari, guruh talabalarining faoliyati, ularning internet tarmoqlaridan foydalanishini tashkil etish, guruh murabbiysining ijarada yashovchi talabalar bilan, talabalar turar joyida yashovchi talabalar bilan, oilali talabalar bilan, nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalar bilan, guruh jamoasidagi qizlar bilan ishlashi kabi bir qator masalalarni yoritdik.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:


1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 1992. - 46 b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarakkiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1992 y. - 65 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.: 1997. - 20-29 betlar.
6. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». //Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: 1997.- 31-60 betlar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi «2004-2O09 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni // Ma'rifat. 2004 yil 22 may.
8. Azarov Y.G. Oila pedagogikasi. –T.: O'qituvchi, 1985.
9. Ashurova G., Adilova D. Murabbiylik soatlari. T., 2014. 210 b.
10. Jumayeva N.E. Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo'llari. –T.: Fan. 2007.
11. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. Toshkent: Aloqachi, 2006.
12. Ilm, fan va taraqqiyot. Ilmiy ishlar to'plami. Qarshi Davlat universiteti professor-o'qituvchilarining ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Qarshi: QDU, 2010.
13. Inson baxt uchun tug'iladi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning hikmatli so'zlaridan //Nashrga tayyorlovchilar: G'aniyev D., G'afurov Z. –T.: Sharq. 1998.
14. Kenjayeva D., Shuxratova F. Barkamol shaxs tarbiyasi asoslari. -T.: Fan. 2010.
15. Obidova M. Odob-axloq – ma'naviyat bulog'i. –T.: Fan. 1991.
16. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Toshkent: Aloqachi, 2008.
17. Pedagogika. A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. –T.: O'qituvchi, 1996.
18. Temirova S. Sinf rahbari faoliyati. Toshkent: O'qituvchi, 1983.
19. Tolipov O'. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Fan. 2005.
20. "Xalq ta'limi" jurnallari. 2010-2013 yy.

ko`ngli cho`kkanlarning fikri, hissiyoti, intilishi va maylini ularning ongidan xalos qilish.

**Talqin qilish** - biror hodisa yoki narsani izohlash, tushuntirish.

**Takabbur** - o`z manfaatlarini yuqori qo`yuvchi, manman shaxs.

**Takt** - misli ko`rilmagan tarzda o`zini tuta bilish.

**Tarbiya** - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

**Texnologiya** - ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o`zgartirish uslubiyotlari to`plami.

**Universitet** - lotincha so`z bo`lib, "to`plam", "umumiylik" ma'nosini bildiradi. Keng sohalar bo`yicha oliy ma'lumot beruvchi o`quv-ilmiy ta'lim muassasasi.

**Uslubiy ko`rsatma** - muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo`yicha talabalarda zarur amaliy ko`nikmalar hosil qilishga mo`ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

**Uslubiy qo`llanma** - o`qituvchilar (professor-o`qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda bir darsning maqsadi, dars o`tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo`shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Uslubiyot** - biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo`llanadigan uslublar yig'indisi.

**Vazifa** - maqsad va uni amalga oshirish bosqichlarining oydinlashtirilishi.

**Xayrixohlik** - kishilarga ochiq ko`ngil bo`lish, iltifotli, marhamatli bo`lish.

**Yaxlit pedagogik jarayon** - tarbiya jarayonida ta'lim va ta'lim jarayonida tarbiya berishning o`zaro singib ketgan, yaxlit holga kelgan jarayoni.



# I BOB. GURUH MURABBIYLARINING ASOSIY VAZIFALARI

## 1.1.Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, tarbiya-viy ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari

Hozirgi kunda yoshlarni barkamol inson, o'z vatanining ilg'or kishisi sifatida tarbiyalash eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki aynan yoshlar mamlakatimizning kelajagidir.

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmokda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor shaxsga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan

hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, ta’lim muassasa, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o‘zaro hamkorlikning ta’sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhitdan himoya qilish – asosiy vazifadir.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, huquqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

– yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

–talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

– har bir talabaning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko‘rish, ular ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

insonparvarlik odobi meyorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg‘onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng



tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha; 2) turli-tuman sifatlar tizimidagi kishining ruhiy, ma’naviy mohiyati; 3) ijtimoiy mohiyat kasb etgan va o`z-o`zini anglash qobiliyatiga ega bo`lgan kishi.

**Shaxsiy fazilat** - shaxs tomonidan o`zining axloqiy-ruhiy va ishchanlik qobiliyatining ijtimoiy ahamiyatini, jamiyatdagi o`rnini anglay olishi.

**Tarbiya** - aniq maqsad asosida shaxsda ijobiy xislatlarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

**Tarbiya vositalari** - tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqa turli vazifalarni bajarish uchun belgilangan moddiy, ma’naviy, madaniy ob’ekt va predmetlar yig’indisidir.

**Tarbiya metodlari** - tarbiyalanuvchini hayotini, faoliyatini, muomala va munosabatini tashkil etish, hulqi va faoliyatini tartibga solish uchun pedagogik maqsadga muvofiq ijtimoiy shartlangan usullardir.

**Tarbiya printsiplari** - tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va vositalariga qo`yiladigan talablar.

**Tarbiya usullari** - tarbiya metodining bir qismi bo`lib, alohida ta’sir, muayyan o`zgartirishni o`z ichiga oladi.

**Tarbiya shakllari** - tarbiyachi va tarbiyalanuvchining birgalikda, belgilangan tartibda amalga oshiradigan faoliyatining tashqi ko`rinishidir.

**Tarbiyalanganlik** - milliy urf-odatimiz mezoniga kirmagan, o`zgalarning nafratini qo`zg’atadigan xatti-harakatlardan o`zini tiya bilish.

**Ta’lim** - insonning ma’lum bir tizim asosida olgan bilim, ko`nikma, malakasi va egallangan ma’naviy fazilatlari yig’indisidir.

**Ta’lim dasturi** - o`quv fanlarining bakalavriat yo`nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo`yilgan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta’minlovchi, bloklarga jamlangan ro`yxat;

**Ta’lim sifatini nazorat qilish** - o`qitish mazmuni va natijalarining davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

**Tvitter** - fikr almashish uchun mo`ljallangan kichkina blog hisoblanadi. Kichkina blog deyilishiga sabab belgilar soni 140 tani tashkil etadi, ya’ni siz 140 tadan ortik belgini kirita olmaysiz.

**Tazyiq o`tkazish** - uyatga qo`yish, aybdorlik hissi yoki

pedagogik ta’sir o`tkazishda samarali qo`llash uchun zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalar majmuasi; 2) har bir ta’lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jihatdan ta’minlash uchun zarur bo`lgan malaka va ko`nikmalar.

**Psixologiya** - 1) shaxsning haqiqiy borliqni faol aks ettirish jarayonini o`rganuvchi fan; 2) ma’lum bir faoliyat turining o`zaro shartlangan psixik jarayonlar to`plami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko`ngil xazinasi.

**Qanoat** - ma’lum maqsadga erishish yo`lida ijobiy tuyg’u bilan bog’langan shaxsning psixologik holati.

**Qiziqish** - shaxs harakatiga sabab bo`ladigan faoliyat yo`nalishining ongli shakli.

**Referendum** - (lot. referendum-xabar qilinishilozim bo`lgan, ing. referendum) - bevosita demokratiyaning shakli, davlatning butun hududidagi aholisining muhim masalalari bo`yicha ovoz berishidir. Referendum alohida jamiyat va davlat ahamiyatiga molik masalani hal qilish uchun umumxalq ovoziga, so`roviga qo`yilgan. Referendum bevosita demokratiyaning muhim instituti bo`lib, davlat va jamiyat ahamiyatiga bog’liq masalalarni ovoz berish yo`li bilan amalga oshirishni o`zida aks ettiradi.

**Shaxs rivojlanishi** - insonning butun umri davomida aqliy va jismoniy o`zgarishi jarayonidir.

**Shaxs shakllanishi** - odamni (biologik mavjudot) turli omillar (ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, psixologik va h.k.) ta’sirida ijtimoiy mavjudotga aylanish jarayonidir, bunda tarbiya asosiy omil sanaladi.

**Sharh** - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan me`yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g’oyalarni, fikrlarni va ta’riflarni izohlovchi, muayyan masalalar echimini ko`rsatuvchi, keng ommaga mo`ljallangan qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Sardor** - guruh a’zolariga lozim bo`lgan vaziyatlarda sezilarli ta’sir o`tkaza oladigan shu guruhning a’zosi.

**Suggestiya** - uqtirish, to`la ishonch hosil qilish.

**Suhbat** - kuzatuv chog’ida etarli darajada aniq bo`lmagan zarur axborotni olish uchun qo`llanadigan tadqiqot uslubiyoti.

**Shaxs** - 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o`zini



qo‘llanishi lozim.

– o‘z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq meyorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma’naviy yetuklikni tarbiyalash;

– islohotlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish;

– siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmilallikni his etish, ijtimoiy siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turish;

– xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya’ni qonunchilik tamoyillarini, o‘zining Vatan, mahalla, oila oddidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat’iy amal qilishi. Qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo‘lish;

– vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog‘iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta’lim-tarbiya;

– mustaqil davlatimiz – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirmoq kerak;

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;

– sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlan-

tirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

– tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

– yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

– milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

– shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va talabalar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, ular fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish,

Oliy ta'lim muassasalarda yoshlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Talabalar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlar, odob-axloq qoidalari, ularning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U guruh jamoasining ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

### 1.2. Guruh murabbiylarining asosiy vazifalari va ular shaxsiga qo'yiladigan talablar.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" g'oyalarini amaliyotga tadbiq etish, respublika ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: "Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat



tirish chora-tadbirlari to`grisida" 2007 yil 17 dekabrdagi 259-son karoriga asosan xukumat portali Internet tarmogida O`zbekiston Respublikasi xukumatining rasmiy davlat axborot resursi hisoblanadi.

**Odat** - kishining ma'lum e'tiqodlar, qadriyatlar yoki axloqiy meyorlardan kelib chiqib amalga oshiradigan ongli faoliyati.

**O`z-o`zini baholash** - kishining o`z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

**O`z-o`zini tarbiyalash** - 1) shaxsga xos bo`lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o`z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

**Pedagogika** - yunoncha "paydagogos" so`zidan olingan, "bola etaklovchi" degan ma'noni bildiradi.

**Profil** - asosiy ta'lim dasturining kasbiy faoliyatning muayyan turi yoki ob'ektiga yo`naltirilganligi;

**Passiv qonuniy xatti - harakat** - huquq normalari va qonunlarini buzmaslikda, ularga rioya etishda, qonunga xilof xatti – harakatlarni qilmaslikda namoyon bo`ladigan xatti – harakat.

**Pedagog** - tarbiyachi, o`kituvchi, dars beruvchi.

**Pedagogika** - yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan.

**Pedagogik jarayon** - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o`zaro munosabatlari.

**Pedagogik mahorat** - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, harakatga keltira olish (A.S.Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

**Pedagogik muloqot** - ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o`zaro aloqalarini o`rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo`llab-quvvatlashini tashkil etishning ko`p qirrali jarayoni.

**Pedagogik takt** - o`quvchilar faoliyatining turli doiralarida ular bilan muloqotda bo`lishning pedagogik tamoyili, o`lchovi, o`quvchilar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to`g'ri muloqotda bo`la olish malakasi.

**Pedagogik texnika** - 1) har bir ta'lim oluvchiga va jamoaga

sasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatinining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir;

**Oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi** - oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

**O`qib-o`rganish natijalari** - o`zlashtirilgan bilimlar, amaliy malakalar, ko`nikmalar va egallangan kompetentsiyalar;

**OTM** - oliy ta'lim muassassasi;

**O`UM** - o`quv-uslubiy majmua.

**O`quv qo`llanma** - darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo`limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar echimiga mo`ljallangan tegishli ta'lim turlari uchun Muvofiqlashtiruvchi Kengash (yoki vakolatli Kengashlarning grifi) tomonidan o`quv adabiyotiga berilgan guvohnoma, o`quv rejalarda ko`rsatilmagan (tanlov va qo`shimcha) fanlari uchun ta'lim muassasasining Ilmiy kengashi qarori asosida chop etiladigan nashr.

**O`zbekiston huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo`nalishi** - I.A.Karimovning "Huquqiy tartibotni yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o`rganishni yaxshilash haqida"gi Farmoni, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy Dasturi", O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishi tashkil etish to`g'risida"gi Farmoyishi va boshqalar tashkil etadi.

**O`zbekiston mustaqillik mafkurasi** - mustaqillikka erishish va uni mustaxkamlash orqali jamiyat rivojlanishini tezlashtiradigan muhim omillardandir.Mamlkatimiz Konstitutsiyasi esa milliy istiqlol mafkurasining asosi hisoblanadi. Milliy istiqlol mafkurasini yaratilishida asosiy Konunda belgilangan g'oyalar, yo`l-yo`riqlar asos qilib olingan.

**O`zbekiston Respublikasi hukumat portali** - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet tarmogida O`zbekiston Respublikasining xukumat portalini yanada rivojlan-



ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, uning o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak".

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi, ayni paytda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan guruh murabbiylari shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi.

Zamonaviy guruh murabbiysi qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi kerak:

1. Jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada talabalarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. Ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6.Murabbiy ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. Murabbiy yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. Murabbiy shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

9. Guruh murabbiysi tarbiyaviy ishlar jarayonida jamoani tashkil qilish metodikasiga katta e'tibor berishi lozim, chunki shaxsni jamoada tarbiyalash bilangina jamiyatni yuksaltirish mumkin.

10. Guruh murabbiysi universitetning "Odob-axloq qoidalari" va "Talabalar turar joyi Nizomi", "Ustoz - shogird" tizimi to'g'risidagi Nizom bilan tanishgan bo'lishi va ular bilan talabalarni ham

tanishtirishi lozim.

Talim soxasida olib borilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, kadrlar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash, ma’naviy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, milliy qadriyatlar va an’analarga sodiq, vatan tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan komil insonni tarbiyalash bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Maqsad – universitet bakalavriat va magistratura yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim oladigan har bir talabani, magistrni nazariy va amaliy jihatdan kasbiy bilimlarni mukammal o‘zlashtirishi, yuksak darajali mahoratga ega bo‘lishi, ijodiy va erkin fikrlar, ahloqiy va ma’naviy yetuk, ziyoli bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir. Bunda talabaning ilmiy izlanishlari, ixtisoslik yo‘nalishi bo‘yicha kasb mahorati, madaniyati, etikasi va tarbiyasi shakllantiriladi.

O‘z navbatida guruh murabbiylari talabalarning bevosita ta’lim - tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’uldirlar. Talabalarni vatanga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy va milliy qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik va mehnatsevarlik hissini yanada kuchaytirib, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglagan holda ularni o‘z sohasi bo‘yicha yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishda ilmiy-amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatib boradilar.

Murabbiy pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. Talaba, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, talaba (yoki hamkasbi, ota-onalar) ning muvaffaqiyatlarini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan muloqot qilishga imkon beradi. Muloqot jarayonida murabbiyning so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi-murabbiy barkamol avlodni tarbiyalash jaray-



magistr tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi;

**O`qitishning meyoriy muddati** - ta’lim oluvchilar tomonidan ta’lim dasturi o`zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

**O‘z-o‘zini baholash** - shaxsning uz psixologik sifatlari, xulqi, yutuklari va muvaffakiyatsizliklari, qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishi.

**O‘z-o‘zini tarbiyalash** I) shaxsga xos bulgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga karatilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning uz jismoniy, ruhiy va axlokiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

**O‘qitish** - ta’lim oluvchining bilish faoliyatini boshkarishga karatilgan ukituvchining faoliyati.

**O`quv fanlari bloki** - ta’lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o`zlashtirilishini ta’minlaydigan o`quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi;

**O`quv rejasi** - oliy ta’limning muayyan yo`nalishi yoki mutaxassisligi bo`yicha o`quv faoliyati turlari, o`quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o`rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat;

**O`quv fani** - ta’lim muassasasida o`rganish uchun fan, texnika, san’at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, uquv va ko`nikmalar tizimi;

**O`quv yili** - oliy ta’lim muassasasida bir ta’lim kursini yakunlashga mo`ljallangan o`quv faoliyat davri.

**O`quv semestri** - oliy ta’lim muassasasida o`quv yilining yarimini tashkil etuvchi o`zaro bog’langan fanlarning ma’lum majmuini o`zlashtirishga mo`ljallangan va ular bo`yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi;

**O`quv fani dasturi** - ta’lim mazmuni, ularning talabalar tomonidan o`zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko`rsatilgan normativ hujjat;

**O`qitish sifatini nazorat qilish** - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning o`quv dasturini o`zlashtirish darajasini aniqlash;

**Oliy ta’lim muassasasi attestatsiyasi** - oliy ta’lim muassa-

**Maqsad** - faoliyat natijasini oldindan fikran belgilash.

**Maqtov** - foydali ish qilgan shaxsni ?ki jamoani og'zaki taqdirlash.

**Motiv** - ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo`ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

**Motivatsiya** - shaxsni faol xatti-harakatlarga undovchi sabablar, asoslar to`plami bo`lib, u ayni zamonda kishi xulqini fiziologik va psixologik boshqarishning dinamik jarayonini ham bildiradi va faoliyatining yo`nalishi, faolligi, uyg'unligi va turg'unligini belgilaydi.

**Muloqotning etakchi turi** - rivojlanishning ma'lum bir davrida atrofidagi kishilar bilan muomalada etakchilik qiladigan muloqot turi bo`lib, uning natijasida shaxsning asosiy sifatlari shakllanadi.

**Munozara** - 1) matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs; 2) muayyan muammo bo`yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim uslubiyoti.

**O`qitish** - aniq maqsad asosida shaxsda bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

**Oliy ta'lim** - uzluksiz ta'limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi.

**Oliy ma'lumot darajasi** - shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan ta'lim dasturini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o`zlashtirish natijasi;

**Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati** (diplom) – akkreditatsiyadan o`tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning ta'lim dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o`qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi;

**Oliy ta'lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori** - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'lim yo`nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro`yxati;

**Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti** - ta'limning bakalavriat muayyan yo`nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo`yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki



onida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat bu fahm - farosat va bilimlarning, chiiakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, talabalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan talaba shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashishi, donolik va ijodiy dalillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir.

O'qituvchi-murabbiyning pedagogik mahoratga ega bo'lishini ta'minlashda quyidagi yo'llardan foydalaniladi:

**Pedagogik mahoratni egallash yo'llari**




Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog raxbarligidagi mashgulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash)dir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o'ynaydi.

Guruh murabbiysi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda axloq-odob haqidagi bilimlarga ega bo'lishi kerak. Zero, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, tarbiyaviy ishlar jarayonida yoshlarning ma'naviy kadriyatlarini shakllantirishda ota-bobolarimizning axloq-odob haqidagi hikmatli hikoyalari, naql-rivoyatlaridan unumli foyda-

lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talaba-yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida komil inson sifatida tarbiyalash, ularda istiqlol tafakkurlarini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak axloq, huquqiy bilimlarni, maynaviy yetuklikni chuqur egallab, qonunlari-miz ustivorligini tan oladigan, mehnatsevar, tadbirkor, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin shaxs sifatida tarbiyalash murabbiylarning eng asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, murabbiylik barcha pedagogik faoliyatlar ichida eng savoblisi hisoblanadi. Agar inson qalbida boshqalarga nisbatan mehr-muruvvat, odamiylik bo‘lar ekan, u doimo o‘zgalarda faqat ijobiy sifatlarni tarbiyalay oladi. Murabbiylarimiz oldida turgan maqsad yoshlarni oliyjanob, bilimli, mustaqillik hoyalariga sadoqatli komil inson qilib tarbiyalashdir. Mana shunday oliyjanob maqsad va niyatning amalga oshiruvchisi, uning yaratuvchisi – murabbiydir. “Murabbiylik soatlari” o‘quv qo‘llanmasining mualliflari Gulbahor Ashurova va Dilorom Adilova murabbiylar uchun quyidagilarni tavsiya etadilar:

Eng avvalo har bir tarbiyalanuvchi-talabada shaxsni ko‘ra oling. Yodingizdan chiqmasin, har bir inson o‘zining individualligi, shaxs ekanligi bilan noyob va takrorlanmasdir;

Talabalaringizga ko‘proq e’tibor bering, ular orasida o‘zlarining ibratli xulqlari, muomalasi bilan boshqalardan keskin farq qiladiganlari ham borki, ularni yomon ta’sirlardan asrash haqida o‘ylang;

Har bir talabangiz tarjimai holini yaxshilab o‘rganib oling, doimo ismini to‘laligicha chiroyli aytib murojaat qiling, vaqti-vaqti bilan uyidagi ota-onasi va yaqinlarini ham surishtirib, ularga ham jonli qiziqishingizni ko‘rsating, bu ishingiz ularni nafaqat sizga yaqinlashtiradi, balki ularda murabbiyga nisbatan ishonch hissini paydo qiladi;

Murabbiylik soatlariga tayyorgarliksiz kelmang, har bir uchrashuv predmetli, mavzuli, bahsli muloqotlardan iborat bo‘lsin, uning mavzusini siz birovlardan emas, o‘sha guruhdan oling, ya’ni ularning yoshi, ixtisosligi, qiziqishlari, muayyan davr, yil fasli masalalariga boy mavzulardan suhbatlar uyushtiring;

Yodingizda bo‘lsin: murabbiylik soatlari o‘tkazishning shakli



lar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Ma’ruzalar to`plami** - muayyan fanning o`quv dasturi bo`yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo`shimcha o`quv adabiyotlar ko`rsatilgan, o`z-o`zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo`yicha chiqariladigan kichik adadda nashr qilingan tarqatma material.

**Ma’lumotlar banki** - axborot texnologiyalarning imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan. Statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta’minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o`z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko`rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o`quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o`z ustida mustaqil ishlashi va o`z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo`llaniladigan, doimiy ravishda to`ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo`ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo`yicha ma’lumotlar to`plami.

**Metodik tavsiyalar** - ta’lim va tarbiyaning samarali usullarini amalda tatbiq etish bo`yicha qisqa va aniq bayon etilgan takliflar majmuidan iborat metodik nashr.

**Munosabat** - kishilarning barqaror o`zaro aloqasi.

**Maqsad** - faoliyat natijasidan fikran xayratlanish.

**Milliy dasturning maqsadi** - aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo`lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo`llay olishlari uchun huquqiy madaniyatni shakllantirishning keng qamrovli muntazam tizimini yaratishdir.

**Mafkura** - g’oya va qarashlar tizimi.

imkoniyati hosil bo`ladi.

**Malaka oshirish** - mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko`nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayoni.

**Mahorat** - shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko`nikma va ijodkorlik asosida hosil bo`lgan kasbiy ko`nikmalarning yuqori darajasi, kasbiy mohirlik. Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko`nikma, malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo`llash;

**Magistratura** - bakalavriat negizida o`qish muddati kamida ikki yil bo`lgan aniq mutaxassislik bo`yicha oliy ta'lim;

**Malaka talablari** - uzluksiz ta'limning tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo`yiladigan talablar;

**Malaka amaliyoti** - o`quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko`nikma va uquv hosil qilish, ta'lim dasturining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo`yicha material-lar tuzish uchun o`tkaziladigan birqismi;

**Modul** - tarbiyalash, o`qitishga o`rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo`lgan o`quv fani (kursi) yoki o`quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi;

**Mutaxassislik** - mauyyan kasbiy faoliyat doirasidagi turli darajadagi ta'lim dasturlarining majmui;

Magistratura dasturi - tahsil olayotganlar tarbiyasi va tayyorgarlik darajasi sifatini ta'minlovchi, o`z ichiga o`quv rejasi, o`quv kurslari, predmetlari, fanlari (modullari)ning dasturlari, malakaviy amaliyotlar dasturlari, kalendar o`quv grafigi va mos ravishdagi ta'lim texnologiyalarini amalga oshirishni ta'minlovchi o`quv-uslubiy majmualari metodik materiallar;

**Ma'lumotlar to`plami** - foydalanishga qulay shaklda yara-tilgan muayyan fanni yoki ta'lim yo`nalishini o`zlashtirish uchun zarur bo`lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko`rsat-kich va o`lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Ma'ruzalar kursi** - fanning o`quv dasturi bo`yicha ma'ruza-



hech qachon ma'ruza bo'lishi mumkin emas, guruhning o'zi faol ishtirok etgandagina, ular tasavvurlarida biror o'zgarish hosil qila olasiz;

Darslarga muntazam kelmaydigan talabalarning kela olmas-lik sabablarini xolisona o'rganing, agar bu universitetdagi o'quv-tarbiya ishlarining tashkil etilishiga bog'liq bo'lsa, ma'muriyat oldiga qat'iy talablar bilan chiqing, agar bu holat oliygohdan tashqaridagi omillarga bog'liq bo'lsa, unda talabaning ota-onasi va yaqinlari bilan hamkorlikda ishlang;

Guruh bilan ishlaganda, dekanat va boshqa jamoat tashkilot-lari bilan doimo aloqada bo'lib turing, murabbiylik soatlariga rahbariyatni, taniqli shaxslarni taklif etib turing, bu talabalarda yaxshi taassurot qoldiradi[1].

Guruh bilan ishlaganda ko'proq interfaol, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, har bir talabaning shaxsiy ishtirokini ta'minlash, tajriba orqali, ya'ni o'zi bajarib tushunishiga intilish – muvaffaqiyat garovidir.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarning deyarli barchasi ta'lim tizimining turli bosqichlvrida mehnat qilish bilan birgalikda o'quvchilar ta'lim olayotgan sinflarda, akademguruhlarida murab-biylik faoliyati bilan ham shug'ullanishmoqda.Murabbiylik faoliyati bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar oliy ta'lim muassasasida o'zlariga murabbiy bo'lgan ustozlardan olgan bilim va tajribalari asosida ish olib bormoqda. Bunday holat murabbiylar faoliyatini yanada yaxshilash, mavjud ijobiy tajribalarni keng yoyish, murab-biylar ishi samaradorligini yanada oshirishga ehtiyoj tug'diradi.

[1]Ashurova G., Adilova D. «Murabbiylik soatlari» -T., 2014, 4 b.

## II BOB. GURUH MURABBIYLARI FAOLIYATINI

## TASHKIL ETISH VA REJALASHTIRISH

### 2.1.Guruh jamoasida g‘oyaviy-siyosiy va axloqiy tarbiyani tashkil etish

G‘oyaviy-axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi g‘oyaviy axloqiy jihatdan yetuk va faol yoshlarni tayyorlashdir. Eng muhim vazifalardan esa bu talabalarni axloq talablariga muvofiq takomillashtirishga tomon yo‘naltirishdir.

Talabalarni g‘oyaviy-siyosiy, ahloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda hal qilinadi, lekin bu ish guruh murabbiysi faoliyatida alohida o‘rin tutish kerak. Lekin bu muhim masalani hal etishda guruh murabbiysi quyidagi vazifalarni majmuali hal qilish kerak:

Talabalarni ma’lum bir darajadagi siyosiy bilimlar, dunyoqarashga doir g‘oya va tushunchalar bilan qurollantirish.

Talabalarda fuqarolik hislarini hosil qilish, ya’ni o‘zining mamlakatdagi, xalqi hayotidagi voqealarga aloqador ekanligini anglashiga erishish, vatanparvarlik, baynalmilallik sifatlarini tarbiyalash.

Talabalarni ijtimoiy-siyosiy amaliyotga, ijtimoiy foydali ishlarga, mehnat faoliyatiga faol jalb qilish yo‘li bilan ularda ijtimoiy-siyosiy tajribani barpo etish.

Guruh murabbiysi har bir talaba o‘zini-o‘zi tarbiyalashning maksadini aniqlab olishga yordamlashmog‘i kerak. Buning uchun har bir o‘quvchining ehtiyoj va qiziqish darajasini o‘rganish ularga o‘z ehtiyojlarini jamiyat manfaatlariga, hal etilayotgan ijtimoiy vazifalarga bo‘ysundirishga, o‘z jamoasi sharoitida vujudga kelayotgan ehtiyojlarni ko‘ra olishga va nihoyat ularni hal qilishning aniq shart-sharoiti hamda hakiqiy imkoniyatlarni topa olishga o‘rgatish guruh murabbiysining burchidir. G‘oyaviy axloqiy tarbiya vazifalarini amalga oshirish, o‘quvchilarni g‘oyaviylik, baynalmilallik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash; shaxsning faol mavqeini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o‘ziga to‘g‘ri yo‘nalish ola bilishga o‘rgatish; milliy g‘oya uchun kurash jarayonida o‘zining faol harakati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida g‘oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Guruh murabbiysi talabalarning darsda egallagan g‘oyaviy-siyosiy bilimlarini darsdan tashqaridagi turli tarbiyaviy ishlar



bo`lgan nazariy va amaliy tayyorlik birligi

**Kognitiv** - bilish jarayoni.

**Kollektiv** - yo`lida shaxslarning o`zaro munosabatlari, tashkiliyligi va intilishlari bilan bir-biriga monand turg’un sotsial (ijtimoiy) guruh.

**Kommunikatsiya** - kishilarning o`zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi.

**Kommunikativ ko`nikma** - muomala qila olish va pedagogik texnika malaka va ko`nikmasi.

**Kommunikativ faoliyat** - pedagogning tarbiyalanuvchilar, boshqa pedagoglar, jamoatchilik vakillari, ota-onalar bilan maqsadga muvofiq o`rnatgan munosabatlari.

**Konflikt** (ziddiyat) - qarama-qarshi qarashlar, fikrlar to`qnashuvi, jiddiy ziddiyat, qizg’in bahs.

**Kreativlik** - betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart yechimlar qabul qiluvchi shaxsning botiniy qobiliyati.

**Kuzatish** - biror pedagogik hodisa bo`yicha aniq daliliy material olish maqsadini ko`zlagan idrok etish shakli.

**Litsey** - yunoncha so`z bo`lib, Afina yaqinida Appollon Likey ibodatxonasi atrofidagi daraxtzor nomi, bir qator davlatlarda o`rta maxsus ta’lim muassasasi.

**Lug’at** - aniq bir tartibda joylashgan so`zlar (yoki so`z birikmasi va hokazo) to`plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to`g’risida ma’lumot beruvchi yoki so`zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Login tushunchasi** - Login – shaxsning, o`zini axborot kommunikatsiya tizimiga tanishtirish jarayonida ko`llaniladigan belgilar ketma-ketligi bo`lib, axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanish xukukiga ega bo`lish uchun foydalaniluvchining maxfiy bo`lmagan kayd yozuvi hisoblanadi.

**Malaka** - shaxsning ma’lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko`nikmalari yig’indisi. Kasbiy axborotlarning tez ko`payib borayotgani ilgari o`zlashtirilgan malakaning etishmasligini keltirib chiqaradi. Bu etishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirirish orqali to`ldiriladi. Bu jarayon uzluksiz davom etgandagina malaka ortib borishi orqali kasbiy faoliyatni hozirgi talablar darajasida davom ettirish

xodisalarni tushunish.

**Kasbiy huquqiy ong** - huquqshunoslar, ya'ni maxsus ma'lumot va tayyorgarlikning amaliy tajribasi talab qilinadigan kasb egalari huquqiy ongidir;

**Konstitutsiyaviy tuzum** - (ing.constitutional system) ma'lum davlatning Konstitutsiyasi va boshqa Konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlari bilan o`rnatiladigan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlar tizimidir. Konstitutsiyaviy tuzum doimo davlatda Konstitutsiyasi mavjud bo`lishini taqozo etadi. Xalq suvereniteti, hokimiyatlarning bo`linishi, inson huquqlarining ustunligi va boshqalar Konstitutsiyaviy tuzumning zaruriy belgilari sanaladi. Konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi: jamiyat va davlatning siyosiy tizimi; iqtisodiy tizimi; ijtimoiy tizimi; ma'naviy-madaniy tizimi.

**Konstitutsiyaviy nazorat** - (ing. constitutional control) davlat hokimiyati organlari, korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, siyo-siy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyatlari tegishli mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiqligini tekshirishdan va Konstitutsiyaga zid harakatlar yuzasidan ko`rsatmalar berish bilan bog'liq, shu vakolatga ega bo`lgan davlat organlarining o`ziga xos nazorat faoliyat turi. Konstitutsiyaviy nazorat olib boruvchi orgn nazorat sub'ekti hujjatlarini o`zgartirish yoki bekor qilish huquqiga ega emas, ammo Konstitutsiyaviy tekshirish natijasida bunday vakolatlarni ishlatishi mumkin. Keng ma'nodagi Konstitutsiyaviy nazorat davlat hokimiyatining turli organlari, chunonchi Parlament, davlat boshlig'i va prokuratura amalga oshiradi.

**Kasbiy fikrlash** - bu kasbiy jihatdan bilishni shakllantira olish, o`zining amaliy faoliyatiga kasbiy bilimlarni qay darajada qshllay olishi. Kasbiy fikrlashda o`zining barcha faoliyatini kasbiy muam-molarni hal qilishga qaratadi.

**Kalokagatiya** - go`zallik va olijanoblik hamda jismoniy va ma'naviy boyliklar birligi.

**Kasbiy – pedagogik muloqot** - pedagog va tarbiyalanuvchining o`zaro zich ijtimoiy – psixologik aloqasi tizimi bo`lib, uning mazmuni axborotlar ayriboshlash, tarbiyaviy ta'sir o`tkazish, kommunikativ vositalar yordamida o`zaro munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi.

**Kasbiy bilimdonlik** - pedagogik faoliyat yuritish uchun zarur



vositasida kengaytiradi. Bu ishlar vaqt o'lchovining chegaralanmaganligi, emotsional ta'sir imkoniyatining kengligi shaxsiy ehtiyojga muvofiqligi tufayli talabalar tomonidan darsdagidan ko'ra boshqacharoq qabul qilinadi. Bu narsa, ya'ni milliy g'oyalar har bir kishining xulq-atvorida, har bir jamoa va har bir tashkilotning faoliyatidagi ishlar bilan uzviy bog'lab olib borilishi lozim. Ana shunga amal qilgan guruh murabbiysi har bir talabani va butun guruh jamoasini faol ijtimoiy ishlarga jalb qiladi, ularda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatda qatnashish ehtiyojini uyg'otadi, bu esa goyaviy-siyosiy tarbiyaning natijasidir.

Talabalarning o'zlari gazeta va jurnallardan maqolalar to'plab, guruh burchagida ko'rgazmalar tayyorlashi, maxsus gazetalar chiqarishi, axborotlarni o'zlari mustaqil o'tkazishlari foydalidir. Yuqori kurslarda bu ishlarning mazmuni, shakli va metodlari yanada murakkablashadi, man-balar hajmi ko'payadi va ular xalqaro voqealarga doir ma'ruzalar, talabalar anjumanlari, jamoatchilik muhokamalari, munozaralar shaklida o'tadi.

Siyosiy axborotlar talabalarda siyosiy bilimlarga chuqur qiziqish uyg'otish, gazeta o'qish, ichki va tashqi voqealarga doir radioeshittirishlarni va teleko'rsatuvlarni tinglash va ko'rish ehtiyojini tarbiyalashi kerak. Guruh murabbiysi bolalarning turli xil voqealar haqidagi o'zaro mulohazalardagi noto'g'ri fikrlarni tuzatishi, ijtimoiy hayotning muhim voqealarini ilmiy asosda sharhlab berishi g'oyat muhimdir.

O'zbek xalqi boshqa xalqlardan aynan axloqiy tarbiyasi bilan ajralib turadi. Shuning uchun talaba-yoshlarni jamiyat axloq-odob normalari asosida tarbiya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Ayni vaqtda guruh murabbiysi talabalarning axloqiy shakllanishi, ma'naviy dunyosining tarkib topishi uchun ham g'amxo'rlik qiladi. Xalqimiz moddiy farovonligining, madaniy darajasini, ma'naviy dunyosining o'sib borishi, mamlakatimiz ma'naviy hayotida eng ilg'or va eng insonparvar ijtimoiy munosabatlar tizimining qaror topganligi guruh murabbiysi amalga oshiradigan axloq tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlash garovidir.

Talabalarning axloqiy shakllanishi faoliyat jarayonida ro'y beradi. Faoliyatni tashkil etish bilan guruh murabbiysi har bir talaba shaxsini g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarkib topishini ta'minlaydi.

Talabalarni faoliyatning ma'lum bir turiga jalb qilish aniq maqsadga qaratilishi kerak.

Talabalarni axloq nazariyasiga doir bilimlar bilan qurollan-tirish va ularni ijtimoiy hayot voqealaridan axloqiy tomonlarni ajrata olishga, axloq meyorlariga muvofiq baholashga o'rgatish bilan guruh murabbiysi yigit-qizlarning o'z xulqini axloq meyor va qoidalari nuqtai nazaridan idora qila olishlariga erishadi.

Yoshlar bilan o'tkaziladigan odob va axloqqa oid suhbatlar ular ishtirok etadigan ijtimoiy foydali va unumli mehnat, turli xil ijod ishlari «Kamolot» tashkiloti faoliyati bilan uzviy bog'liq tarzda borsagina, ijobiy natija beradi.

Axloqqa oid suhbatlar samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri talabalarning ongi bilan xulqi o'rtasidagi birlikni ta'minlash hisoblanadi. Axloqiy bilim berishdan maqsad, tashqi ta'sirni ongli harakat bilan bog'lovchi ichki istakka aylantirishni ta'minlashdir. Bunda u o'ziga ma'lum bo'lgan axloq meyoriga rioya qilgan holda to'g'ri harakat qilish yo'lini tanlab olishga o'rganadi.

Axloqiy bilim berishda guruh murabbiysi bilan oilaviy hamjihatlik g'oyat muhim omildir. Shuning uchun yoshlar bilan bir qatorda ota-onalar o'rtasida ham axloqiy tarbiyaga doir bilimlar tarqatish kerak. Axloqqa oid suhbatlarni bir oyda bir marta o'tkazgan ma'qul. Har bir suhbatga oldindan tayyorlaniladi. Suhbat vaqti 40-45 minutdan oshmasligi kerak. Navbatdagi suhbatga tayyorgarlik davrida guruh murabbiysi hamda yoshlar turli xil faoliyatda ishtirok etadilar. Mavzu tanlashda guruh murabbiysi mamlakat-ning ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan voqealarga, o'quv materialining mazmuniga, talabalarning axloq meyoriga doyr bilimlari darajasiga asoslanadi.

Axloqiy ongni shakllantirishda guruh murabbiysi suhbatlar bilan bir qatorda tushuntirish, ma'ruza, namuna, ibrat kabilardan ham keng foydalaniladi. Ana shu jarayonda u talabaning axloqiy mulohazasini o'stirishga o'zining va boshqalarning xulqini axloq meyorlari asosida baholay olishga qaratilgan ishlarga, ularni jalb qilishga alohida e'tibor berish lozim. Odatda, talabalar o'rtoqla-rining, atrofdagi kishilarning xulqidagi ijobiy, salbiy tomonlarni baholay olganlari holda o'z xulqidagi tomonlarga u qadar e'tibor berishmaydi va ularda o'z xulqini baholash ancha kech ko'rina



faqiyat bilan o`zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o`zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to`plami.

**Ishontira olish** - axborot oqimining shaxs tomonidan tanqid-dan holi, erkin ravishda o`zlashishiga erishishni ko`zlagan ruhiy ta'sir etish uslubiyoti.

**Ishonch hosil qilish** - shaxsning muayyan qoida va talablarini ongli ravishda o`zlashtirish vositasida tarbiyalash uslubiyoti. Tegishli ma'lumotlar va dalillarga asoslanib, shaxsning o`z hukmi va xulosalari to`g'riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

**Ichiqoralik** - o`zgalarning muvaffaqiyatsizligidan sevinish.

**Ichki holat** (mavqe) - shaxsning kundalik ehtiyoji bilan uzviy bog'liq va hayotining muayyan davri faoliyatining asosiy mazmuni va yo`nalganligini belgilovchi ijtimoiy ko`rsatkichlari tizimi.

**Istiqbolni belgilash malakasi** - ijtimoiy va bilish jarayon-larini rejalashtirish va boshqarish.

**Kollej** - fransuzcha so`z bo`lib, Fransiya, Belgiya, Shveysa-riya va b. davlatlarda o`rta maxsus ma'lumot beradigan va kasb-hunarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi.

**Ko`nikma** - ongli faoliyat (harakat) ni tez, tejamli, to`g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda, bajarish. Shaxsning bilimlarm asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqich-larda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradgan va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

**Kasbiy faoliyat turi** - uni o`zgartirish, unga o`zgartishlar kiritish maqsadida kasbiy faoliyat ob'ektiga ta'sir qilishning metod-lari, usullari, uslublari va tavsifi;

**Kompetensiya** - ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuri-tish uchun bilimlar, amaliy malakalar va shaxsiy sifatlarni qo`llash qobiliyati;

**Kasbiy faoliyat ob'yekti** - predmetlar, voqeliklar, jarayonlar va faoliyat doirasida harakatga yo`naltirilgan tizimlar;

**Kasbiy faoliyat sohasi** - ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarishda namoyon bo`ladigan kasbiy faoliyat ob'ektlarining majmui;

**Kar'era** - kasbiy o`sish, xizmat bo`yicha yuqorilash, ijtimoiy tan olinish.

**Kontseptsiya** - qarashlar tizimi, jarayonlar u yoki byuu

larini ongli ravishda o`zlashtirish vositasida tarbiyalash uslubiyoti. Tegishli ma'lumotlar va dalillarga asoslanib, shaxsning o`z hukmi va xulosalari to`g'riligiga ishonchni yuzaga keltirish jarayoni va natijalari.

**Innovatsiya** - lotincha so`z bo`lib, "yangilik kiritaman" ma'nosini bildiradi.

**Institut** - lotincha so`z bo`lib, "mahkama", "idora" ma'nosini bildiradi, oliy ma'lumot beruvchi muassasa.

**Interfaol** - inglizcha so`z bo`lib, "o`zaro ta'sir" ma'nosini bildiradi. Biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqatda, o`zaro bahs-munozara usulida, fikrlashishida hamjihatlik bilan hal etish ma'nosini anglatadi.

**Interfaol mashg'ulot** - o`qituvchi va o`quvchilar o`zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

**Izohli lug'at** - so`zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so`zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo`llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Individuallik** - insonning bioijtimoiy o`ziga xosligi, uning takrorlanmasligi.

**Ishontirish** - tarbiya usuli, uning vositasida o`ziga yo`naltirilgan qoidalar, talabalarni shaxs ongli o`zgartirishga erishadi.

**Individual huquqiy ong** - bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, xissiyotlar va tuyg'ular majmui hisoblanadi. Har bir inson turli bilish qobiliyatlari, shaxsiyatning turli psixologik turlari oqibatida amaldagi huquqlarini o`ziga qabul qilinadi, uni baholaydi, qonuniy yoki qonunga zid ravishda xatti – xarakat qilish istagini bildiradi;

**Ideal** - oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

**Ijtimoiy idrok etish** - kishilar tomonidan ijtimoiy ob'yektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

**Izohlash, tushuntirish** - og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo`lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

**Individuallik** - shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

**Intellekt** (aql) - shaxsning turli faoliyat turlarini muvaf-



boshlaydi. Mana shuning uchun guruh murabbiysi talabalarni o'z xulqini axloq meyor va talablari asosida quyi kurslardan boshlaboq baholashga o'rgata boshlashi maqsadga muvofiqdir.

Guruh murabbiysi axloq tarbiyasini amalga oshirishda har bir talabaning xulqiga, xarakter xislatlariga alohida e'tibor berib borishi kerak. Guruhda pedagogik qarovsiz qolgan, tarbiyasi qiyin bolalar ham uchraydi. Agar bu xil bolalarning xulqi o'z vaqtida tuzatilmasa, u jamiyatdagi axloq meyorlariga xilof yo'nalish kasb etishi ham mumkin. Shuning uchun ham guruh murabbiysi bu xil yoshlarning xulqlaridagi salbiy jihatlarni qancha tez aniqlasa, uni tuzatishga qanchalik tez aralashsa, shuncha yaxshi natijaga erishadi.

Guruh murabbiysining axloqiy tarbiyani amalga oshirishi metodik asosga ega bo'lsagina samara beradi. Buning mohiyati guruh murabbiysining talabalarni axloqiy rivojlantirishga qay darajada ta'sir qila olishidadir, ya'ni talabaning yoshi, guruhi, shaxsiy xususiyati hisobga olinishi kerak.

Axloqiy mavzular yuzasidan munozaralar o'tkazish talabalarda axloqiy e'tiqod, qarash va nuqtai nazarni shakllantirishning muxim vazifasi hisoblanadi.

Munozara vaqtida guruh murabbiysi betaraf turishi foydalidir. Munozara oxirida guruh murabbiysi yakun chiqaradi. Munozara uchun yoshlarni to'lqinlantirayotgan masalalar mavzu bo'ladi, masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?», «Yashashning ma'nosi va hayotdan maqsad», «Inson qachon baxtli bo'la oladi?», «Zamonaviy bo'lishning ma'nosi nimada?».

Guruh murabbiysi har bir mavzuning mazmuniga kiradigan masalalarni aniqlashda talabalarga yordam beradi.

Masalan: «Hayotda o'z o'rnini topishning ma'nosini qanday anglaysiz?» mavzusi uchun asos qilib quyidagi masalalarni olish mumkin:

«Hayotda o'z o'rnini topish» iborasini qanday tushunasiz?

Qanday orzuni eskirgan deyish mumkin?

Baxt va hayotdan lazzatlanish, ular o'rtasida farq bormi?

Shaxsiy erkinlikni qanday tushunasiz?

Sizning g'oyangiz kabi masalalarni tavsiya qilish mumkin.

«Yashashning ma'nosi va hayotdagi maqsad» mavzusiga:

1. Hayotning «ma’nosi» va «maqsadi» bir xil tushunchami?

2. Hayotimiz qo‘ygan qadamimizga qanchalik va qay jihatdan bog‘liq bo‘lish mumkin?

3. «Qanday yashash kerak», «Nima uchun yashash kerak», bu masalalarning har birini qanday anglash kerak?

4. «Yashashning ma’nosi» va «Baxt» tushunchalari o‘rtasida o‘zaro o‘xshashlik bormi? Bo‘lsa nimada kabi masalalar asos qilib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Munozara uchun tavsiya etilayotgan bu mavzular yoshlarning fikrini band qiladigan asosiy mavzular bo‘lib, ulardan qaysi birini tanlash, qanday uyushtirish guruh talabalarining ehtiyojiga, jamoadagi kayfiyat va qiziqishiga bog‘liq. Bu mavzularga kiradigan masalalar hammasi axloq, ma’naviy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lib, ular yuzasidan yuritiladigan bahslar yordamida talabalar axloqiy bilimga jamiyatdagi odamlar munosabati bilan bog‘liq meyor va qoidalarga oid tushunchalarga ega bo‘ladilar, asta-sekin ularda ishonch va qarashlar tarkib topa boradi.

Guruh murabbiysi faoliyatining mazmuniga kiradigan axloq tarbiyasi faqat yuqoridagilar bilangina hal bo‘la qolmaydi. Axloqiy tarbiyani amalga oshirish murakkab jarayon bo‘lib, asosiy e’tibor talabalarda axloqiy ong, his, tushuncha, mulohaza kabilarga muvofiq axloqiy malaka va odatlarni shakllantirishga qaratilishi kerak.

## 2.2.Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo‘yiladigan pedagogik talablar

Tarbiya jarayonining mazmuni bolalarga beriladigan ma’naviy axloqiy bilimlar tizimi, ishonch, e’tiqod, intizom, xulq-atvorni bir butun holatini tashkil etadi. Mustaqil O‘zbekistoning, istiqlol va istiqboli uchun fidoiylik ko‘rsatuvchi avlodni tarbiyalash mazmuni tamoman o‘zgacha xarakter kasb etmoqda:

fuqarolik demokratik jamiyatni barpo etish mohiyatini anglab oluvchi;

Vatanini har doim turli oqimlardan himoya etuvchi;

diniy bag‘rikenglik va mehr-muravvatli bo‘lish;

davlat siyosatini tushunish unga fidoiy bo‘lish;

o‘zligini anglash, ajdodlar merosini qadrlash;

yuqoridagi komil insonga xos sifatlarni tarbiyalashda;



bildiradi, oliy ma’lumot beruvchi muassasa.

**Interfaol** - inglizcha so`z bo`lib, “o`zaro ta’sir” ma’nosini bildiradi. Biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqatda, o`zaro bahs-munozara usulida, fikrlashishida hamjihatlik bilan hal etish ma’nosini anglatadi.

**Interfaol mashg’ulot** - o`qituvchi va o`quvchilar o`zaro faol ishtirok etadigan mashg’ulot; jarayon hamkorlikda kechadi.

**Izohli lug’at** - so`zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so`zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo`llashga oid misollar va boshqa ma’lumotlar keltirilgan, qo`shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Individuallik** - insonning bioijtimoiy o`ziga xosligi, uning takrorlanmasligi.

**Ishontirish** - tarbiya usuli, uning vositasida o`ziga yo`naltirilgan qoidalar, talabalarni shaxs ongli o`zgartirishga erishadi.

**Individual huquqiy ong** - bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, xissiyotlar va tuyg’ular majmui hisoblanadi. Har bir inson turli bilish qobiliyatlari, shaxsiyatning turli psixologik turlari oqibatida amaldagi huquqlarini o`ziga qabul qilinadi, uni baholaydi, qonuniy yoki qonunga zid ravishda xatti – xarakat qilish istagini bildiradi;

**Ideal** - oliy maqsad, biror narsaning namunasi, shaxs, guruhlarning xatti-harakatlari, intilishlari intihosi.

**Ijtimoiy idrok etish** - kishilar tomonidan ijtimoiy ob’yektlarning idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi.

**Izohlash, tushuntirish** - og’zaki izoh, yoritilishi lozim bo`lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

**Individuallik** - shaxsning betakror biosotsiologik xususiyatlari.

**Intellekt** (aql) - shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o`zlashtirishini belgilaydigan tug’ma va o`zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to`plami.

**Ishontira olish** - axborot oqimining shaxs tomonidan tanqiddan holi, erkin ravishda o`zlashishiga erishishni ko`zlagan ruhiy ta’sir etish uslubiyoti.

**Ishonch hosil qilish** - shaxsning muayyan qoida va talab-

texnikaning ma'naviy madaniyat va huquqiy taraqqiyotga daxldor xususiyatlarida ifodalangan o`ziga xos yuridik ne'matdir.

**Huquqiy mafkura** - huquqiy borliqning hodisasi, huquqning tartibga soluvchi sifatlari rivojlanishining erishilgan darajasi, jamg'arilgan huquqiy qadriyatlar, huquqiy yuridik texnikaning ma'naviy madaniyat va huquqiy taraqqiyotga daxldor xususiyatlarida ifodalangan o`ziga xos yuridik ne'matdir.

**Huquqiy targ'ibot** - bu jamoatchilikning keng qatlamlarining huquqiy bilmlarini mustaxkamlash va ularning huquqiy madaniyatni yuksaltirishning uzuluksiz jarayonidir.Huquqiy tashviqt- jamoatchilikning ma'lum bir guruhlarini belgilangan reja asosida huquqiy savodxonlik darajasini oshirish va ularga huquqiy ta'lim berishning izchil jarayonidir. Huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlari turli ko`rinishlarda (ma'ruza qilish, suhbat uyushtirish, ko`rsatuvlar va maqolalar tayyorlash va hokazo) amalga oshirilishi mumkin.Bu tadbirlar aholininng huquqiy bilimlarini mustahkamlash va ular duch kelayotgan muammolarning huquqiy echimini topishga yordam berishdan iboratdir.

**Huquqiy nigilizm** - bu ijtimoiy ongning elementi bo`lib, fukqarolar tomonidan huquqqa, qonunga, qonunchilikka,davlat va uning tizimiga bo`lgan e'tiborsizlik, ishonchsizlik yoki ehtiyotsizlik kabi ko`rinishlarda namoyon bo`ladigan munosabatdardir.

**Huquqiy tartibga solish funktsiya** - Huquqiy madaniyatning huquqiy tartibga solish funktsiyasi huquqiy tizim barcha tarkibiy bo`g'inlarining barqaror, bahamjihat, jo`shqin va samarali faoliyat yuritishni ta'minlashga yo`naltirilgandir. Huquqiy madaniyat huquqiy ong bilan uzviy bir butunlikda jamiyatning tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqar ekan, u nafaqat ijtimoiy voqelikni aks ettiradi, balki unga faol qayta ta'sir ko`rsatadi.

**Halollik** - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me`yorlarni rostgo`ylik bilan saqlash.

**Hasad** - o`zgalarning muvaffaqiyatlarini ko`ra olmaslikdan kelib chiqadigan tuyg'u.

**Ilmiy bilim** - tizimli, asosli va narsa, hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo`ladi. U empirik va nazariy darajada bo`ladi.

**Innovatsiya** - lotincha so`z bo`lib, "yangilik kiritaman" ma'nosini bildiradi.

**Institut** - lotincha so`z bo`lib, "mahkama", "idora" ma'nosini



maqsadni aniqligi va uni to'g'ri yo'naltirish madaniyati;

tarbiyachi-o'qituvchi va tarbiyalanuvchini hamkorlik faoliyati;

- o'zini anglash, mustaqil fikrlovchi e'tiqodligi va ixtiyorlik.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning asosiy omillari:

Vatanga muhabbat va insonparvarlik.

Milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish.

Ma'naviy tarbiya (axloq va odob).

Iqtisodiy tarbiya.

Ekologik tarbiya.

Go'zallik tarbiyasi.

Jismoniy barkamollik (sog'lom avlod uchun).

Ota-onalar bilan ishlash.

Yuqoridagi omillarni rejalashtirishda tanlanadigan mavzular quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Tarbiyaviy tadbirlar rejasi va undagi mavzular davr talabiga javob berishi.

Tanlangan mavzular miliy va umuminsoniy qadriyatlar qamrovida bo'lishi.

Tarbiyaviy tadbirlar uzviylik qoidasiga amal qilgan bo'lishi.

Mavzular talabalarning yoshi va bilim saviyasiga mos bo'lishi.

Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» dasturi, O'zbekiston Respublikasi «Kamolot ijtimoiy harakati» dasturiga mos qilib olindi.

Tarbiya jarayoni va uning natijasi ishning qay darajada tashkil etilganligi va undan keladigan samaraga bog'liq. Guruh murabbiysi tarbiya ishini guruh miqyosida hal etishda istiqbolni tasavvur eta olsa, kelajakni ko'ra bilish mahoratiga ega bo'lsagina u muvaffaqiyat bilan ishlay oladi.

Demak, hozirgi kunda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish davrning muhim talabi bo'lib qoldi. Shu boisdan ham guruh murabbiysi ishini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: o'z ishida tarbiyaning umumiy maqsadini hisobga olgan holda shu kun uchun muhim bo'lgan aniq maqsadni belgilash; guruh jamoasining xususiyatidan kelib chiqadigan

vazifalarni tushuntirish; tarbiyaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini, talabalarga ta'sir etishning shakli, metodi, vositalarini hamda ular guruhini idora qilish qoidalari va jamoani rivojlantirish qonunlarini bilish kabilar.

Agar guruh murabbiysi o'z ishidagi har bir qadamining pedagogik ma'nosini yaxshi bilsa, u talabalar qalbining muhandisiga aylanadi, aks holda esa oddiy bir hunarmand bo'lib, qoladi xolos.

Buning uchun guruh murabbiysining rejasi:

o'z mazmuniga ko'ra g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy foydali yo'nalishga qaratilgan bo'lishi, ya'ni jamiyatning va boshqalarning foydasiga qaratilgan ishlarga alohida e'tibor berish;

tarbiyaning yo'nalishini, talabalarga ta'sir etish vositalarini maqsadga muvofiq tanlash, ya'ni rejada mo'ljallanayotgan ishlar nimaga va kimga qaratilganligini aniqlash;

rejadagi ishlar aniq, ya'ni umumiy maqsadga bo'ysundirilgan, bajaruvchilari, vaqti, ish shakli ko'rsatilgan bo'lishi;

rejadagi ishlar talabalar kuchiga va yoshiga moyel kelishi;

talabalar qiziqishiga asoslanishi va ehtiyojlaridan kelib chiqishi;

mo'ljaldagi ishlarni bajarishda butun jamoaning va yakka shaxslarning ishtirokini hisobga olish;

bajarilishi lozim bo'lgan barcha ishlar oldindan hammaga ma'lum qilinishi kabi talablarga javob berishi lozim.

Guruh murabbiysining rejasidagi guruhning faoliyatiga oid ishlar bir necha parallel guruh qatnashuvida kuchlarni birlashtirib o'tkazilishi vaqtni va kuchni tejaydi. Guruh murabbiysi tanlaydigan guruh faoliyati ma'lum bir aniq maqsadga bo'ysundirilsa, samarali bo'ladi. Masalan, «Kamolot» tashkilotining tashkil topishi guruh murabbiysining yangi a'zolarining yetakchilik, tashkilotchilik imkoniyatini ta'minlashga, umumjamoa tashkilotida yoshlarning biror ishni bajarish va boshqalarga erishishni uyushtirishga hamda ularni guruhning an'analarini yaratishga g'amxo'rlik qilish mahoratiga bog'liq. Rejada ana shu maqsadga xizmat etadigan aniq ish shakllari aks ettirilishi zarur.

Guruh murabbiysining taqvim rejasi quyidagi chizmada bo'lishi mumkin. Biz keltirgan bu ish taxminiydir. Ammo har bir



munosabati.

**Estetik tarbiya** - go`zallikni his qilish, atrof-muhitdagi go`zallikni payqay olish va tushunishga bo`lgan qobiliyatni tarbiyalash.

**Ehtiyoj** - shaxsning biror narsa-hodisaga muhtojligi va kishining

**Funktsiya** - "Funktsiya" so`zi lotin tilidan olingan bo`lib, "faoliyat" degan ma'noni anglatadi hamda u qo`llanish vakolatiga ko`ra mutanosib ravishda o`zgarib boradi

**Faoliyat** - 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

**Gumanizm** - 1) insonning insonga bo`lgan muhabbati, uning qadrini hurmat qilish, kishi manfaatlari uchun qayg'urish g'oyalari bilan sug'orilgan va kishilar o`rtasidagi tenglik, halollik,insoniy munosabat tamoyillariga asoslangan duyoqarash; 2) insoniylik va insonparvarlik, insonlarning bunyodkorligiga ishonchi.

**G'ayri ixtiyoriylik** - tashqi holat yoki shaxsiy kayfiyatlar ta'sirida dastlabki ishonchlarga moyil kishi xulqining xususiyati.

**Huquqni muhofaza qilish** - huquqni muxofaza qilish va ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo`lmish yuridik muassasalar;

**Huquqiy ruhiyat** - alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, xissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat;

**Huquqiy ong** - ijtimoiy ongni shakllaridan bo`lib, kishida huquqqa, qonunchilikka, huquq – tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo`lgan g'oyalar, xis – tuyg'ular tasavvurlar yig'indisi;

**Huquqiy ong darajasi** - bu odamlarning huquqlardan shunchaki xabardorligi, qonunlarni bilishigina emas. Bu, eng avvalo, qonunlarga rioya etish va ularni bajarishga tayyorlik, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilishdir.

**Huquqiy mafkura** - huquqiy boriqning alohida xodisasi huquqiy madaniyatda o`z ifodasini topadi. Shu ma'noda huquqiy madaniyat huquqning tartibga soluvchi sifataaalari rivojlanishining erishilgan darajasi, jamg'arilgan huquqiy qadriyatlar, huquq, yuridik

Covereighty, nem. Souveranitat) davlatni boshqa davlatdan, uning ichki va tashqi ishlari hamda, tashqi munosabatlarda to`la mustaqqilligi. Konstitutsiyaviy huquq fanida suverenitetning bir necha turlari mavjud.

**Davlat suvereniteti -** davlat hokimiyatining davlat ichidagi ustunligi va uni tashqi muhitda ya'ni xorijiy xokimiyatni istisno qiluvchi davlat hokimiyatlari – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatlarining hududdda to`la amal qilishi hamda halqaro aloqalarda davlatning xorijiy davlat hokimiyatlaridan mustaqilligi (davlat tomonidan suverenitetini cheklashga o`z xohishi bilan rozilik berilgan hollar bundan mustasno) suverenitet davlat hokimiyatining muhim belgisini aks ettiradi.

**Dunyoqarash -** shaxsning tafakkur tarzi va yo`nalishini aks ettiruvchi qarashlar, e'tiqod va fikr-o`ylar tizimi.

**Elektron darslik -** kompyuter texnologiyasiga asoslangan o`quv uslubini qo`llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o`quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o`zlashtirishga mo`ljallangan bo`lib: o`quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda; o`quv materiallar verbal (matn) va ikki o`lchamli grafik shaklda; multimedia (ko`p axborotli) qo`llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o`lchamli grafik ko`rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda; taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o`quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

**Elektron ma'ruza -** interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo`llab, o`quv fani ma'ruza materialini namoyish qiluvchi multi-medik tizim.

**Etiket -** ahloqiy madaniyat ko`rinishi, u ko`proq insonning tashqi madaniyatini, o`zaro munosabatlarda o`zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomila dbida inson o`z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomila qilish imkoniyatiga ega bo`lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirilib qo`yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

**E'tiqod -** shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va ideallarning haqqoniyligiga qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muhitga hamda o`zining xatti-harakatlariga bo`lgan sub'yektiv



guruh murabbiysiga o'z guruh sharoiti va imkoniyatiga qarab ishini rejalashtirish va tahlil qilishda u namuna bo'la oladi.

Guruh murabbiysi o'zi uchun bir haftaga mo'ljallab reja tuzib olsa yaxshi bo'ladi. Bunga kundalik ish mazmuni, bajaruvchilar ko'rsatiladi, haftalik reja qisqa vaqtga mo'ljallanganligi uchun ham u guruh hayotida, o'quv yurtida, ijtimoiy hayotda ro'y beradigan voqea va hodisalarga tasodifiy vujudga kelgan ehtiyoj va zaruriyatlarga muvofiq ishlarni belgilash va tegishli o'zgartirishlar kiritish uchun qulaylik tug'diradi.

Bu rejani quyidagi chizmada tuzish mumkin:

1-jadval

| Hafta kuning yo'nalishi va sanasi | Tadbir va uni bajaruvchilar | Tadbirning tahlili va pedagogik xulosa |
|---|---|---|
| | | |

Bu yerda hafta kunning yo'nalishlari deganda, haftaning har bir kunini ma'lum faoliyatga ajratish ko'zda tutiladi. Masalan, dushanbani siyosiy maorif uchun; seshanbani matbuot, san'at saroylari ishi uchun, chorshanbani mexanik kuni, yigilishlar uchun, payshanbani san'at bayramlari va tadbirlari, nazorat ishlari o'tkazish uchun, jumani to'garaklar va turli mashgulotlar uchun, shanbani guruh soati, ota-onalar yigilishlari, sayohat, uchrashuv, bellashuvlar o'tkazish uchun, yakshanbani esa dam olish kuni, quvnoqlar starti, sport musobaqalari o'tkazish bilan bog'liq faoliyatga ajratish ancha maqsadga muvofiq bo'ladi. Bulardan ba'zilari guruhda, ba'zilari o'quv yurti miqyosida o'tadi.

Guruh murabbiysi o'z talabalari bilan o'tkaziladigan har bir tadbiri uchun alohida reja tuzish ham tavsiya etiladi. Qat'iy dastur va darsliklari bo'lgan har bir minutlik dars o'zining barcha bo'limlari va minutlarigacha hisobga olinib, dasturlashtiriladi-yu, lekin negadir tarbiyaviy ishlar tajribasida ma'lum mavzudagi axborot soatlar, bahslar, majlis, siyosiy axborot kabilar ko'pincha hech qanday dastursiz, rejasiz o'tkaziladi va bunday hollarni har qadamda uchratishimiz mumkin. Aslida esa tarbiyaviy tadbirning rejasini ishlab chiqish dars rejasidan ko'ra murakkabrokdir. Bu

xildagi reja uchun qo‘yiladigan talablar oldindan betafsil aniqlanib, uning mazmuni o‘ylab chiqilsagina samarador tarbiyaviy tomoni yuqori bo‘ladi.

Bu reja va konspektda quyidagi bo‘limlar bo‘lishi va har bir bo‘limlar yuzasidan tegishli tayyorgarlik ishlari olib borilishi kerak:

1. Ishning shakli va mazmuni.
2. Tarbiyaviy maqsad, shu ishda hal qilinadigan vazifa.
3. O‘tkazish vaqti, kuni, soati.
4. Tanlab olingan tadbir shakli, o‘tadigan joyi.
5. Tadbirning dasturi.
6. Tayyorgarlik davrida qilinadigan ishlarning turi, yo‘nalishi.
7. Kerak bo‘ladigan jihozlarni, bezaklarni tayyorlash.
8. Guruh murabbiysining ushbu ishdagi ishtiroki va mavqei.
9. Ishning natijasini tahlil qilib, kamchiliklarni belgilash.

### 2.3. Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalashga qo‘yilgan talablar

Hozirgi davrda o‘quv muassasalar va ulardagi o‘quv, tarbiya jamoa oldida juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalar qo‘yilmoqda.

Oliy o‘quv yurti yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, ularni g‘oyaviy va siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatga ega qilishi, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda guruh murabbiysi muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bir guruh sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Guruh murabbiysining ko‘p qirrali vazifasi va funksiyalari «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da, «O‘quv yurti ichki Nizomlari»da bayon qilingan bo‘lib, unda o‘qituvchilarga, ota-onalarga va guruh rahbarlariga tavsiyalar berilgan; aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyaning vazifasi va mazmuni guruhlarga nisbatan moslashtirilgan.

Ana shunga ko‘ra, guruh murabbiysi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.O‘ziga yuklatilgan guruhda tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi.

Bu vazifani bajarishda u dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan yaqin hamkorliqda va ularga suyangan holda o‘quvchi-



## G L O S S A R I Y

**Axloq** - shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi meyorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

**Bilim** - borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi.

**Bakalavriat** - o`rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida oliy ta’lim yo`nalishlaridan biri bo`yicha fundamental bilimlar beradigan, o`qish muddati to`rt yildan kam bo`lmagan tayanch oliy ta’lim;

**Bakalavr, magistr** - oliy ta’limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar;

**Boshqaruv** - ishga qobil ijtimoiy tuzilmani tuzish uchun zarur sharoitlarni tanlash va samaradorligini oshirish bo`yicha olib boriladigan va qo`yilgan maqsadni amalga oshirish uchun undan foydalaniladigan faoliyat.

**Boshqarish** - tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob’ektni o`z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

**Burch** - muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

**Darslik** - davlat ta’lim standarlari, o`quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida, milliy g’oya va ma’naviy qadriyatlarimiz singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o`zlashtirilishiga qaratilgan xolda, fanga tegishli bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o`zlashtirib olishga, ularda ko`nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o`quv materialini mustaqil izlash va topishga, hamda amaliy faoliyatda qo`llashni o`rgatish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo`naltirilgan va tegishli ta’lim turlari uchun Muvofiqlashtiruvchi Kengash (yoki vakolatli Kengashlarning grifi) tomonidan o`quv adabiyotiga berilgan guvohnoma, o`quv rejalarda ko`rsatilmagan (tanlov va qo`shimcha) fanlari uchun ta’lim muassasasining Ilmiy kengashi qarori asosida chop etiladigan nashr.

**Davlat suvereniteti** - (fr.souverainete oliy xokimiyat, ing.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 30 | Umuxalq bayrami Navro‘zni munosib tarzda kutib olish, bayramda milliy urf-odatlarimizning tiklanishiga guruh talabalari e’tiborini qaratish | Mart | Fakultetda | Guruh murabbiyi |
| 31 | “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari bo‘yicha elektron DVD disklari to‘plamini o‘rganish, savol-javoblar o‘tkazish | Aprel | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 32 | Guruh talabalarining jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishlarini nazorat qilib borish, sport to‘garaklariga jalb qilish | Muntazam | Sport zali va maydonda | Guruh murabbiyi |
| 33 | “Xotira va qadrlash kuni”ga tayyorgarlik ko‘rish, tadbirda faol qatnashish, Xotira maydoniga guruh talabalari bilan sayohat uyushtirish | 1-10 may | Xotira maydoni da | Guruh murabbiyi |
| 34 | Talabalarning yakuniy nazoratga tayyorgarligini tekshirib borish | May | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 35 | Ota-onalar bilan uchrashuvlar tashkil etish, suhbatlashish | Iyun | Fakultetda | Guruh murabbiyi |



larda dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloq tarbiyasini amalga oshiradi. «Kamolot» tashkiloti hamkorligida, muntazam suratda ularga tayanib va kundalik ishda yordam uyushtirib talabalar bilan darsdan tashqaridagi xilma-xil ishlarni tashkil etadi va guruh jamoasini mustahkamlaydi.

2.Guruh murabbiysining diqqat markazida talabalarning yuqori darajada o‘zlashtirishini ta’minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir talabaning kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi, orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida kechiktirmay yordam uyushtiradi.

3.Guruhdagi talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltiradi, ular ishtirokida guruh jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta’min etadi, o‘quv yurti miqyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o‘z guruhining faol qatnashishini ta’minlaydi.

4. Guruh talabalarining ota-onalari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi oila va o‘quv yurtiga yordam beruvchi homiy mahallalar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.

5. Guruh murabbiysi shu guruhda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida, o‘kuv yurti bilan oila o‘rtasida talabalarga nisbatan yagona talablar o‘rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan o‘quv yurti o‘rgasidagi aloqani mustahkamlaydi.

6. Guruh murabbiysi o‘z guruhidagi turli hujjatlarning: guruh jurnali, o‘zlashtirish monitoringi, talabalarning reyting daftarchasi, shaxsiy hujjatlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish guruh murabbiysining shaxsiy sifatlariga ham bog‘likdir. Guruh murabbiysining shaxsiy sifatlariga qo‘yiladigan talablar o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin guruh murabbiysi asosiy tarbiyachi, bolalar ma’naviy jihatidan andoza oladigan shaxs bo‘lganligi uchun ham bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida o‘rin egallaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g‘oyaviy ishonchiga va siyosiy ongining darajasiga bog‘liq.

Guruh murabbiysi o‘zining g‘oyaviy-siyosiy ongini oshiradi. Bu guruh murabbiysiga bolalarni onglilik ruhida tarbiyalashga, ular

orasiga begona ideologiya va yomon xulqning kirib borishiga qarshi kurasha olish imkoniyatini bera oladi.

Guruh murabbiysining axloqiy obro‘si g‘oyat darajada yuqori bo‘lishi ham bu o‘rinda muhimdir. Guruh murabbiysi ana shundagina tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma’naviy qiyofasi talabalar ongining va xulqining shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatadi.

Guruh murabbiysi uchun kasbiy mapaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emas. O‘z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi fuqarolik fazilatlari, intizomi va odamiyligi, axloqiy sifatlari bilan ham ta’sir o‘tkazadi. Chunki tarbiyachilik talanti juda ko‘p sifatlarni chuqur bilish, keng fikr doirasi, ishga jon dildan ko‘ngil qo‘yish, bolalarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, aql va odoblilik namunasi, vazminlik va kamtarlik kabi fazilatlarning bo‘lishini taqozo qiladi. Bunda yana tarbiyachilik texnikasi qo‘shilsa, ishda muvaffaqiyat ta’minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi guruh murabbiysining asosiy qurolidir.

Guruh murabbiysidan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir talaba shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo‘lish, o‘z malakasini tinimsiz oshirib borish bilan ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, guruh murabbiysining o‘zi bolalarda tarbiyalamoqchi bo‘lgan g‘oyaviy-axloqiy g‘oyaga mos bo‘lishi kerak. Talabalarning oldiga qo‘yilayotgan talablar tarbiyachining o‘zida namoyon bo‘lmasligi tarbiyadagi og‘ir nuqtalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Guruh murabbiysining maxsus kasbiy va ijtimoiy vazifalariga odilona baho beruvchi xolis hakam - tarbiyalanuvchilar. Avvalo, guruh murabbiysi amaliy faoliyatining faqat yarmi tarbiya texnologiyasiga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarimi - bu san’at. Shu tufayli guruh murabbiysiga qo‘yiladigan dastlabki talab shuki, unda pedagogik qobiliyat mavjud bo‘lishi kerak. Guruh murabbiysining qobiliyati - talabalar bilan ishlashga ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo‘lgan munosabatdan mamnun bo‘lish va hokazolardir. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat uddaburonlikdan



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 22 | Guruhda past o‘zlashtiruvchi talabalar bilan alohida ishlash va amaliy yordam berish | Yanvar | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 23 | “Ogoh bo‘ling – OITS!” mavzusida mutaxassislar ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish | Yanvar | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 24 | “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirga guruh talabalarining faol ishtirokini ta’minlash | Yanvar | Fakultetda, guruhda | Guruh murabbiyi |
| 25 | Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida suhbatlar uyushtirish | Fevral | Fakultetda, guruhda | Guruh murabbiyi |
| 26 | Talabalarning moddiy sharoitlari va guruh ahvolidan xabardor bo‘lib borish | Muntazam | TTJlarda, ijarada | Guruh murabbiyi |
| 27 | “8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan tadbir tashkil etish | 1-10 mart | Fakultetda, guruhda | Guruh murabbiyi |
| 28 | “Diniy aqidaparastlik va missionerlikning oldini olish davr talaba” mavzusida suhbat o‘tkazish | Mart | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 29 | Oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish, oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida “Oila mas’uliyati”, “Ibratli oila”, “Er va xotin munosabatlari” mavzularida tarbiyaviy soatlar o‘tkazish | Mart | Guruhda | Guruh murabbiyi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 16 | Guruh talabalarining darsdan bo‘sh vatqlarini o‘rganish, uni mazmunli o‘tkazish maqsadida fan, kasbiy to‘garaklarga, ijodiy markazlarga jalb qilish. | Har oyning oxirida | Fakultetda | Guruh murabbiyi |
| 17 | Guruhda “Jahon va yoshlar”, “Ma’naviyat insonni ulug‘laydi”, “Inson odobi bilan go‘zal” va boshqa turli qiziqarli mavzularda davra suhbatlarini olib borish | Noyabr, dekabr | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 18 | Guruh talabalari bilan Konstitutsiyani o‘rganish maqsadida “Siz huquqingizni bilasizmi?”, “Burch va mas’uliyat” kabi turli mavzularda savol-javob va suhbatlar tashkil etish | Dekabr | Faollar zalida | Guruh murabbiyi |
| 19 | Guruh talabalarining ota-onalari, yaqin qarindoshlari bilan uchrashuv o‘tkazish. Ota-onalar kengashi a’zolarini saylash | Dekabr | Fakultetda | Guruh murabbiyi |
| 20 | Kashandalik, giyohandlik va ichkilikbozikning salbiy oqibatlari haqida davra suhbatarini o‘tkazish | Dekabr | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 21 | Ta’tildan qaytgan talabalar bilan suhbatashish, yakuniy nazorat haqida ma’lumotlar berish, professor-o‘qituvchilar bilan guruh talabalarining o‘zlashtirishi haqida suhbatlashish | Yanvar | Guruhda | Guruh murabbiyi |



farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa. Qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod, layoqat va zehn, ya’ni inson asab tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo‘lishi ham zarur.

Tarbiyaviy faoliyatning samarali bo‘lishi uchun guruh murabbiysida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo‘lmog‘i va tarbiyalab yetishtirilmog‘i lozim:

tashkiliy - guruh murabbiysining o‘quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo‘lib berish, ishni rejalashtirish, qilingan ishlarni jamlash mahoratiga namoyon bo‘ladi;

didaktiga oid - o‘rganishga bo‘lgan qiziqish hamda ma’naviy, hissiy istaklarni ragbatlantirish, o‘quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo‘ladi;

perseptiv- tarbyyalanuvchilarning ma’naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo‘ladi;

suggestiv - o‘quvchilarga emotsional ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi;

kelajakni ko‘ra bilish - o‘z harakatlarning oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchilarda qanday fazilatlarni ro‘yobga chiqarish lozimligini oldindan ayta olish mahoratida namoyon bo‘ladi;

tadqiqiy - pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni o‘rganish va obektiv baholash mahoratida namoyon bo‘ladi.

Guruh murabbiysining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ (kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham tez aloqa o‘rnata olish) qobiliyatga ega bo‘lishi, ro‘y berayotgan fakt va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog‘lab baholashgina emas, balki ro‘y berish sababiga qarab hukm ham chiqarishi, pedagogik optimizmga, ijod qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Guruh murabbiysining eng muhim fazilati - odamlar bilan tezda til topa olishi, ko‘pchilikka qo‘shila bilish, ulfatjonlik, dilkashlik bo‘lib, bu undagi muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki uning hamisha odamlar bilan muomala qilishiga, ular bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda o‘quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yaratish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo‘luvchi guruh murabbiysining insoniy xislatlari

muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Guruh murabbiysi uchun juda muhim xislat - insonparvarlik, ya’ni o‘sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabat qilish lozim. Insoniy munosabatlar o‘quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning fikriga quloq solmoq, uning o‘quvchilik faoliyati yuksak talabchanlikdan iborat.

Guruh murabbiysi doimo faol, ijodkor shaxsdir. U talabalarning kundalik hayotini uyushtiruvchi hamdir. O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, ularni o‘zi bilan yetaklash faqat yuksak irodali insonning qo‘lidan keladi. Auditoriya, o‘quvchilar jamoasi kabi murakkab organizmlarga pedagogik rahbarlik qilishi guruh murabbiysidan topqir, zehni o‘tkir, har qanday vaziyatni mustaqil yechishga doim tayyor bo‘lishligini talab qiladi. Unga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri - sabr-toqat va dadillikdir. O‘qituvchining birdan sarosimaga tushgani, o‘z nochorligini talabalar sezmasligi lozim. Shuni hamisha esda tutish kerakki, guruh murabbiysi o‘z harakati va axloqini nazorat qilish, hech qachon arzimagan narsalarga asabiylashmasligi kerak.

Muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning birinchi sharti - bu guruh murabbiysining talabchanligi. Dastlab talabni u o‘ziga qo‘yishi kerak, chunki o‘zingda bo‘lmaganni o‘zgadan talab qila olmaysan. Talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo‘lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda yuz berib turadigan keskinliklarni bartaraf etish uchun tarbiyachiga hazil-mutoyiba tuygusi yordam beradi. Uning ko‘lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do‘stona piching - ijobiy emotsional holat yaratishga imkon berib, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qildiradi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri – mas’uliyatdir. Guruh murabbiysining mas’uliyati tarbiyachining faoliyati va ta’lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o‘z ichiga oladi. Tarbiyachi zimmasiga bolaning shaxs sifatida har tomonlama kamol toptirish mas’uliyati yuklanadi. U talabaga chu-kur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u o‘quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatni o‘z vaqtida payqab, individual munosabatda bo‘lishi, unda mavjud bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlarni avaylab o‘stirishi darkor.

Guruh murabbiysi o‘quv yurtidagi eng malakali murabbiy hisoblanib, u bajaradigan mehnatning o‘lchovi, chegarasi yo‘q. Shu



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 9 | Talabaning kiyinish madaniyatini nazoratga olish. Kiyinish madaniyati, muomila madaniyati haqida suhbatlar tashkil etish | Muntazam | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 10 | Talabalarni jamoat ishlariga jalb qilish va ishtirokini nazoratga olish | Doimiy | Joylarda | Guruh murabbiyi |
| 11 | “1-oktabr - O‘qituvchilar va murabbiylar kuni” munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbirga tayyorgarlik ko‘rish | 25-30-sentabr | Fakultetda | Guruh murabbiyi |
| 12 | 21-oktabr – O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunga tayyorlanish, davra suhbatlari va tadbirlar o‘tkazish. | Oktabr | Fakultetda | Guruh murabbiyi |
| 13 | Talabalar bilan turli madaniy maskanlarga va tarixiy joylarga tashrif buyurish | Ta’til kunlari reja asosida | Joylarda | Guruh murabbiyi |
| 14 | Guruh talabalarining bilimlari va darsdagi ishtiroki haqida professor-o‘qituvchilar fikrlarini o‘rganib borish | Muntazam | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 15 | Talabaning ma’naviy va ruhiy-psixologik holatini o‘rganish maqsadida universitet ijtimoiy-gumanitar kafedra mutaxassislari bilan doimiy aloqa o‘rnatish, muammoli holatlarni birgalikda hal etish | Muntazam | Guruhda | Guruh murabbiyi |

**II-kurs 205-guruh talabalari uchun 2014-2015 o'quv yilida bajarilishi mo'ljallangan manaviy va tarbiyaviy ishlar**
**R E J A S I**

| № | Tadbirlar mavzusi | O'tkazilish vaqti | O'tkazish joyi | Tadbirga mas'ul |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Rahbarlikka tayinlangan guruh bilan tanishish | 1-10 sentabr | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 2 | Ish reja tuzish va tasdiqlash | 1-10 sentabr | Guruhda | Fakultet dekani |
| 3 | Talabaning ruhiy-ma'naviy, ijtimoiy olami bo'yicha ma'lumotlar banki yaratish | 1-15 sentabr | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 4 | Har haftaning chorshanba kuni "Axborot soati" o'tkazish va qayd qilib borish | Haftaning seshanba kuni | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 5 | "Murabbiylik soati" uchun tarbiyaviy mavzuda reja asosida suhbat o'tkazish | Haftaning juma kuni | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 6 | Guruh talabalarining universitet ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirish | Sentabr | Guruhda | Guruh murabbiyi |
| 7 | Viloyat va tumanlardan kelgan talabalarning yashash sharoitlari bilan tanishish va nazoratga olish | Sentabr, doimiy | TTJ va yashash joylarida | Guruh murabbiyi |
| 8 | Talabalar turar joylari va ijarada turuvchi talabalarni alohida ro'yxatini tuzish, yashash sharoiti haqida ma'lumotga ega bo'lish, talabalar bilan tez-tez suhbat o'tkazish | O'quv yili davomida | Joylarda va talabalar turar joylarida | Guruh murabbiyi |



bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis va tamasiz shaxs bo'lib, jamoachilik asosida ishlaydi. Guruh murabbiysi pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda o'zining mavqeini aniq taminlay olishi kerak.

Shunday qilib, pedagogik odobga ega bo'lgan guruh murabbiysi talabalar orasida obro' qozonadi. Ustoz qanchalik obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi va aksincha, tarbiyachining sha'ni qanchalik past bo'lsa, uning ta'siri shuncha bo'sh va talabalarni voyaga yetkazish jarayoni ham shuncha zaif bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan fazilatlar guruh murabbiysining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishda va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga ega bo'ladi.

### 2.4. Guruh murabbiysining shaxs va jamoani o'rganishi va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishi

Guruh murabbiysining muhim vazifalaridan biri - bu talabaning o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim qobiliyatini rivojlantirish, kasb-hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir talabaning kelajak hayotiy rejalarini amalga oshirish, talabalarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faollarga ishonish, ularning guruh jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish guruh murabbiysining bevosita asosiy vazifasidir.

Guruh murabbiysining talabalarni o'rganish metodikasi quyidagi chizmada ko'rsatiladi:

Guruh jamoasini tashkil etish va tarbiyalash jarayonida guruh murabbiysining tashkilotchilik funksiyasi juda katta ahamiyatga egadir. «Tashkilotchilik» tushunchasining o'zi keng ma'noga ega. Maxsus bir maqsadni ko'zlab u yoki bu ishni, tadbiriy choralarni tashkil etish guruh murabbiysidan yuqori malaka va maxsus mahoratni talab qiladi.

Tashkilotchilik funksiyasi bir nechta jihatlarga bog'liqdir:

O'tgan ishlarni tahlil qilish, uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi sabablarini belgilab olish.




B. Guruhda o‘tkaziladigan barcha ishlar tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ma’lum maqsadni ko‘zlab o‘tkazilishi va guruh murabbiysi turli tarbiyaviy ishlarni o‘tkazishda oldin shu ishning modelini tuza bilishi lozim.

Guruh murabbiysi oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘z oldiga aniq vazifa ko‘ya bilishi lozim.

Guruh murabbiysi har bir tarbiyaviy choralarni amalga oshirishda o‘qituvchi va talabalarning qobiliyatlariga qarab, vazifalarni taqsimlash, ma’lum reja asosida tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish o‘rni, vaqti, soati, javobgar shaxslar va tizimliligini aniqlash lozim.

Ma’lum tarbiyaviy ishlarda mutaxassislarni joy-joyiga qo‘yish, vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash, ishga boshqa o‘qituvchilarni, ota-onalar, talabalar, otalik tashkilotlari va ish ob`yektini aniqlash lozim.

Guruh murabbiysining jamoani tashkil qilish bo‘yicha asosiy faoliyati:

1. Har bir talabani shaxs sifatida o‘rganish.
2. Talabalarni guruhda tarbiyalashni tashkil etish.
3. Talabalarning bilim-tarbiyasini oshirish va ularning tartib-intizomini mustahkamlash.
4. Guruhda darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish.
5. Fan o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlarini birlashtirish (koordinatsiyalash).
6. Talabalarning ota-onalari bilan ishlash.



**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

| | |
|---|---|
| “TASDIQLAYMAN” | “KELISHILDI” |
| Pedagogika | Ma’naviy - ma’rifiy ishlari |
| fakulteti dekani: | bo’yich dekan o’rinbosari: |
| __________dots.Sh.Nurullaeva. | _________A.Sultonov |

PEDAGOGIKA FAKULTETI “MAKTABGACHA TA`LIM” YO’NALISHI, II-kurs 205-GURUHI 2014-2015 O’QUV YILI MA’NAVIY-MA’RIFIY VA TARBIYAVIY

ISH REJASI

Guruh rahbari: Yu. ISMOILOVA.
Guruh sardori: Sh. RAJABOVA.

QARSHI - 2014 yil

**Qarshi Davlat universiteti, “Maktabgacha ta`lim” yo’nalishi**

## Guruhlarda ishlash qoidasi

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
3. Agar yordam kerak bo‘lsa. Albatta murojaat qiling.
4. Agar sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.
5. Gruhlar faoliyatining natijalari ni rag‘batlantirishda hamma ishtirok etishi shart.

**12-Ilova**



Guruh murabbiysi fan o‘qituvchilarining ishlariga nisbatan tarbiyaning ko‘p qirrali muhim vazifalarini bajaradi. Shuning uchun uning oldiga juda katta pedagogik va psixologik talablar qo‘yilgan, bu talablar tarbiyaviy ishlarni yuqori darajaga ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga asoslanib, guruh murabbiysining jamoani birlashtirish bo‘yicha vazifalarini aniq tarzda ko‘rsatishni zarur deb bildik.

Guruh murabbiysining vazifalari:

1.Talabalarning anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlarini o‘rganish.

2. Talabalarning kundalik davomati, odob xulqi va jamoat ishlariga qatnashishini tekshirib borish.

3.Talabalarning rejimga rioya qilishlari va uyga berilgan vazifalarni tayyorlab borishlarini kuzatish.

4. Guruhda ishlaydigan fan o‘qituvchilari bilan majlislar o‘tkazish.

5. Darsda talabalar davomatini ta’minlash, guruhdagi va o‘quv yurtida navbatchilikni tashkil etish, xonani jihozlash, xonadagi o‘quv asboblarini saqlashga o‘rgatish, talabalar bilan suhbatlar o‘tkazish.

6. Guruh majlislarini tizimli o‘tkazish.

7. «Kamolot» tashkiloti bilan ish rejalariga muvofiq darsdan tashqari ishlarni tashkil etish.

8.Talabalar bilan darsdan tashqari o‘qish va anjumanlarni o‘tkazish.

9. Guruh talabalari bilan sport, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi borasida tadbiriy choralar ko‘rish, talabalar sog‘lig‘ini muntazam nazorat qilish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan doimiy muomalada bo‘lish.

10. Talabalarni rag‘batlantirish va zarur vaqtlarda ularga nisbatan chora ko‘rish.

11. Talabalarning ota-onalari yig‘ilishlarini doimiy o‘tkazish, ular bilan tarbiya borasida doimiy muomalada bo‘lish va individual suhbatlar o‘tkazish.

12. Talabalar turar joylarida reja asosida ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy tadbirlarni muntazam o‘tkazish.

## III BOB. GURUH MURABBIYSINING TARBIYAVIY ISH REJASI

### 3.1. Guruh jamoasini o‘rganishnning namunaviy dasturi

Guruh murabbiysi ishini rejalashtirishda oliy ta’lim muassasasi umumiy ish rejasidan kelib chiqib, aniq guruh rejasini tuzishda parallel guruhlarda ko‘riladigan chora-tadbirlarni hisobga olish juda muhimdir.

Ta’lim muassasasining tarbiyaviy ish rejasi o‘quv yilining boshida Ilmiy kengash yig‘ilishida tasdiqlanib olinadi. Har bir guruh murabbiysi o‘z guruhi tarbiyaviy ish rejasini ta’lim muassasasi tarbiyaviy ish rejasida ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni o‘z guruhida taalluqli bo‘lgan qismlarini kiritib reja tuzadi.

1. Talabalar to‘g‘risida umumiy malumot:
• talaba qayerda yashaydi;
• ota-onasini kasbi va ish joyi;
• oila a’zolari va ularni moddiy ta’minlanganligi;
• oilada ota-onasining o‘zaro munosabati;
• talaba rejimi;
• oilaning xo‘jalik ishlarida talabaning ishtiroki;
• talabaning hayotida eng muhim voqealar;
• talaba sog‘ligi to‘g‘risida ma’lumot.
2. Yoshlar taraqqiyotining umumiy holati:
• umumiy taraqqiyot (nutq madaniyati, dunyoqarash, xarakteri, kino, teatr, muzey, stadionlarga borish);
• o‘qishga bo‘lgan munosabati;
• talabaning davomati;
• talabaning jismoniy mexnatga munosabati;
• talabaning intizomi, xulqi, tirishqoqligi;
• talabaning qiziqishi (o‘qishga, sportga).
3. Talabaning jamoat ishlariga ishtiroki:
• guruhning jamoat hayotida ishtirok qilish;
• jamoat ishlarining bajarilishi xususiyati;
• talabaning guruhda obro‘yi va mavqei.
4. Talaba shaxsining asosiy xususiyatlari:
• jamoatchilik, dunyoqarash;
• talabaning madaniy sifatlari, Vatanni sevish, do‘stlik, insoniylik, baynalmilallik;
• irodalik xarakteri va xususiyatlari (maqsadi bo‘lish, faollik,



| | | |
|---|---|---|
| **2. Asosiy bosqich** | 2.1. Talabalarni 5 ta kichik guruhga bo‘ladi va guruhlarda hamkorlik asosida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi (1-ilova). Har bir guruh mavzu rejasi asosida taqdimot tayyorlashini aytadi.<br>2.2. O‘quv kursi mavzulari bo‘yicha tayyorlangan eksert varaqalarini tarqatadi.<br>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to‘liq yoritilishini kuzatadi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritilishi lozim bo‘lsa, guruh sardorini to‘xtatadi, savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi.<br>2.5. Mavzular asosida berilgan ma’lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag‘batlantiradi. | Kichik guruhlarga bo‘linadilar. Topshiriqlar bo‘yicha ishylaydilar. Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar. Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savolllarga javob beradilar. Tinglaydilar. |
| **3. Yakuniy bosqich** | 3.1. O‘quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.<br>3.2.Mavzular maqsadiga erishidagi talabalar faolyatini tahlili qiladi va o‘zlashtira olmagan joylarini qayta o‘qib chiqshni tavsiya etadi. | Tinglaydilar. |

**11. 1-Ilova**

| | |
|---|---|
| **Ta'lim berish usullari** | Munozara, suhbat, tezkor-so'rov, "T-sxema" metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | "Bahslashuv texnologiyasi", Ommaviy guruhlarda ishlash. |
| **Ta'lim berish vositalari** | O'quv qo'llnama, proyektor, markerlar, ekspert topshiriqlari |
| **Ta'lim berish sharoiti** | Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya |
| **Nazorat va rag'batlantirish** | Og'zaki nazorat: savol-javob |

**"Kiyinish madaniyati – ma'naviyat ko'zgusi" mavzusidagi amaliy mashg'ulotining texnologik kartasi**

| Ish bosqich-lari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | Ta'lim beruvchi | Ta'lim oluvchilar |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayot-gan natijalarni shakllantiradi.<br>Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqish.<br>Ekspert guruhlar ish natijalarini rag'batlantirish mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova) | |
| **1.O'quv mashg'ulotiga kiirsh bosqichi** | 1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbligini asoslaydi.<br>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. | Savollarga javob beradilar. |



botirlik, tashkilotchilik, mustaqillik, intizomlilik, mardlik, kamtarlik va hokazo);

• talaba mijozining xususiyatlari va uning ruhiy jarayoni (nutq, diqqat, xotira, xayol, ruhiy holatlar).

5.Talabani o'rganish asosida guruh raxbari quyidagi chora-tadbirlarni tuzadi:

• talabalarni qaysi sifatlarini tarbiyalab rivojlantirish lozim;

• talaba axloqidagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun nimalar qilish kerak.

Guruh murabbiysining ish rejasi, odatda, bir o'quv yili uchun yarim yillik yoki choraklik muddatlariga mo'ljallanib, ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Tarbiyaviy ish rejalarini esa qisqa muddatlarga tuzish maqsadga muvofiqdir.

Guruh murabbiysining tarbiyaviy ish rejasi o'quv yurtining muhim hujjati hisoblanadi. Guruh tarbiyaviy ish rejasini tuzish va uni amalga oshirishda guruh murabbiysi ma'muriyat va ta'lim muassasasi oldida javobgar shaxsdir.

Guruh murabbiysining Nizomida uqtirib ko'rsatilganidek, guruh murabbiysi, albatta, yarim yillik, bir choralik tarbiyaviy reja asosida ish olib borishi kerak. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiyaviy ish rejalari choraklik yoki yarim yillikni tartibli olib borish mas'uliyatli ish bo'lib, u guruh talabalari va faollarning orasida muhokama qilinishi lozim.

## 3.2. Guruh jamoasi bilan ishlash va unga rahbarlik qilish

Guruh murabbiysi o'z guruhidagi talabalarning bevosita ta'lim-tarbiya jarayoni, ya'ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas'uldirlar. Guruhdagi barcha talabalarni qobiliyatiga qarab, to'garaklarga jalb etish kerak. Guruhdagi talabalarning soni nechta bo'lishidan qati nazar, ularga axborot soati daftarini tuttirish kerak. Haftada bir marta o'tkaziladigan axborot soatlarini to'g'ri tashkil etib, unga haqqoniy yondashish shartdir. Tarbiyachi qanday sharoitda ishlamasin, u qanday guruhda ishlashidan qati nazar, talaba shaxsini kamol toptirishi kerak. Guruh rahbarligi, odatda, guruhni va alohida har qaysi talabani o'rganishdan boshlanadi. Ma'naviyati boy bo'lgan guruh murabbiysi talabalar bilan alohida - alohida ishlashni amalga oshirishi, talabalarga o'z ta'siri, metodlarini mohirlik bilan qo'llashi kerak.

Agar guruh murabbiysi talabalar faolligini yanada oshirishga

harakat qilsa, ota-onalar bilan aloqani mustahkamlashi lozim bo‘ladi. Qaysiki guruh murabbiysi ota-ona bilan yaqindan aloqada bo‘lsa, uning guruhidagi talabalarining faolligi oshadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni talabalar, ota-onalar o‘rtasida o‘rganib ishlab chiqilishi kerak. O‘quv maskanida ta’lim mazmunini takomillashtirish, ta’lim metodlarini yangilash borasida ko‘p ishlar qilindi va qilinmoqda. Tarbiyachi talabalarda bilim olishga bo‘lgan ishtiyoq va ehtiyojini uyg‘otishga harakat qiladi. Agar guruh murabbiysi o‘z guruhidagi talabalar o‘rtasida hurmat qozona olsa, talabani fikrlashga o‘rgatsin.

O‘quv maskanida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga to‘g‘ri va bevosita guruhda o‘zlashtirishni ko‘tarishga ta’sir etadi. Guruh murabbiysi talabalar bilan hamkorlikda tarbiyalanuvchilarni o‘qishga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, talabalarning o‘qishini nazorat qiladi. Darslarga kiradi, kuzatadi va o‘z guruhidagi talabalar bilan birgalikda guruhda o‘quv ishlari sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Guruh xonasining jihozi va ko‘rinishi talabalarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun talabalarga guruh burchagini qanday jihozlash kerakligini aytib berish kerak. Guruh murabbiysi ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalanish, talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlaridan foydalanish, tarbiyalanuvchilar ijodiy qobiliyatlarini o‘strishda, ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan bo‘sh vaqtlarida talabalarning jamoat topshiriqlarini, to‘garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Tarbiyalanuvchilarni sevish va hurmat qilish tarbiyaviy ish samaradorligini oshirishning zarur shartidir. Agar pedagog tarbiyalanuvchilarni sevmasa, u tarbiyalanuvchilarning haqiqiy tarbiyachisi, murabbiysi bo‘la olmaydi.

### 3.3.Guruh murabbiysining oila va jamoatchilikhamkorligida olib boradigan pedagogik faoliyati

O‘quv yurtining oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi guruh murabbiysi orqali amalga oshiriladi. Guruh murabbiysi ota-onalar bilan olib boradigan ishlarida quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o‘rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi.

2.Talabaga nisbatan o‘quv yurtining va oilaning yagona



### “KIYINISH MADANIYATI – MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot ta’lim texnologiyasi

| | |
|---|---|
| **Mashg‘ulot vaqti – 2 soat** | Talabalar soni: 25-30 gacha |
| **Mashg‘ulot shakli** | Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg‘ulot |
| **Amaliy mashg‘ulot rejasi** | 1. Kiyimning paydo bo‘lish tarixi va unga ehtiyoj paydo bo‘lishi.<br>2. Kiyimlar turli xalqlar madaniyatining ajralmas qismi.<br>3. Insonning kiyinish madaniyati va muomila madaniyatida millat qiyofasi ko‘rinishi. |
| **O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalar bilan kiyinish madaniyati, milliylik, o‘zlikni anglash, qo‘shtirnoq ichidagi “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurash yuzasidan bahs-munozara tashkil etish, shuningdek amaliy mashg‘ulotda talabalar faolligini ta’minlash, universitet “Odob-axloq qoidalari” bilan tanishtirish. | |
| **Pedagogik vazifalar:** | **O‘quv faoliyati natijalari:** |
| 1.Kiyimning paydo bo‘lish tarixi va unga ehtiyoj paydo bo‘lishi haqida ma’lumot berish. | 1. Kiyimning paydo bo‘lish tarixi va unga ehtiyoj sezilishi haqida bilimlari mustahkamlanadi. |
| 2.Kiyimlar turli xalqlar madaniyatining ajralmas qismiga oid bilimlarini kengaytirish. | 2. Kiyim – turli xalqlar madaniyatining ajralmas qismiga oid bilimlarini kengayadi, qiyoslanadi. |
| 3.Insonining kiyinish va muomila madaniyatida millat qiyofasi namoyon bo‘lishi haqida bilimlarni aniqlash. | 3. Insonning kiyinish va muomila madaniyatida millat qiyofasi namoyon bo‘lishi haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. |
| 4.Universitet “Odob-ahloq qoidalari” bilan tanishtirish. | 4. Universitet “Odob -ahloq qoidalari” bilan tanishadi, unga rioya qilish barcha talabalar uchun majbur ekanligini bilib oladi. |
| 5.Talabalarni mavzu bo‘yicha mustaqil fikrlashini shakllantirish va bilimini kengaytirish. | 5. Mavzu bo‘yicha mustaqil fikralashi shakllanadi, o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini namoyish etadi. |

**Guruhlarda ishlash qoidasi**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas’uliyat bilan yondashing.
3. Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta murjaat qiling.
4. Agar sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.
5. Guruhlar faoliyatining natijalarini rag‘batlantirishda hamma ishtirok etishi shart.

**10.2 -Ilova**

Ekspertning guruhlar ish natijalarini rag‘batlantirish mezonlari

| Mezonlar | Maks. Ball | Guruh natijalari | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| Axborotning to‘liqligi | 3 b. | | | | | |
| Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi | 1 b. | | | | | |
| Guruhning faolligi | 1 b. | | | | | |
| Ballarning maksimal summasi, jami | 5 b. | | | | | |

**11 -Ilova**



talablar qo‘yishga erishadi.

3.Guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning guruhdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta’minlaydi.

4.Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko‘taradi.

5.Guruhga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va o‘quv yurtiga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatadi va ularni guruhdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Guruh murabbiysining talabani yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-birlariga qanchalik ko‘p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog‘liq. Ana shu maqsadda guruh murabbiysi oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- Talabaning o‘quv mehnatiga tavsifnoma, o‘qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

- Talabaning ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, talabaning jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo‘qligi sababi, ularga o‘zining munosabati.

- Talabaning o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, o‘quv yurtidagi munosabatlarning doirasi.

- Talabaning ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga talaba tarbiyasi haqida maslahat va tavsiyalar. Oila ham o‘z navbatida farzandi haqida o‘z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan guruh murabbiysiga quyidagi mazmunda ma’lum axborotlar berib borishi mumkin:

- Farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

- Belgilangan kun tartibining talaba tomonidan bajarilishi.

- Talabaning o‘quv yurta haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, guruh hayotidagi turli voqealarga baholari.

- Ota-onaning ayrim o‘qituvchilardan, guruh murabbiysidan, o‘quv yurti rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Guruh murabbiysi bilan oila o‘rtasidagi bu xildagi o‘zaro

xabarlashuvlar talabani to‘la o‘rganishga, ta’lim va tarbiyada shu talaba uchun eng maqbul tarbiya va ta’sir vositasini topishga yordam beradi. Guruh murabbiysi o‘z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to‘plangan ma’lumotlarni vaqti-vaqtida o‘rganish bilan shularga asoslanib, tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo‘llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo‘yilsa, tarbiya albatta, samarali natija beradi.

Guruh murabbiysining tajribasida ota-onalar yig‘ilishlari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu yig‘ilishlar guruh ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o‘z qarorlari bilan guruhdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo‘nalishini belgilab beradi.

Guruh ota-onalar yig‘ilishlarining bir necha xili mavjud: guruhdagi tashkiliy ishlar bilan bog‘liq hamda ota-onalarga pedagogik ma’lumot berishga bag‘ishlangan yig‘ilishlar, shuningdek, munozara shaklidagi va yarim yillik yoki yil yakuniga bag‘ishlangan yig‘ilishlar ham mavjud. Bu yig‘ilishlarning har biri aniq maqsad, tayyorlash va o‘tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog‘liq guruh ota-onalari yig‘ilishida, odatda, ota-onalar guruhi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlanadi. Ko‘pgina o‘quv yurtidagi guruh murabbiysining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda.

Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz:

1. Talabalarning uylariga borish - oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda guruh murabbiysi talabaning ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni o‘quv yurtiga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina talabalarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga talabani oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa talabaga chaqiriqlar yoki



| | | |
|---|---|---|
| **2. Asosiy bosqich** | 2.1. Talabalarni 5 ta kichik guruhga bo‘ladi va guruhlarda hamkorlik assoida ishlash usuli qoidalari bilan tanishtiradi.<br>(1-ilova) Har bir guruh mavzu rejasi asosida taqdimot tayyorlashini aytadi.<br>2.2. O‘quv kursi mavzulari bo‘yicha tayyorlangan ekspert varaqalarini tarqatadi.<br>2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. Taqdimot materiallari mazmunan va mantiqan to‘liq yoritilishini kuzatadi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e’lon qiladi. Guruhlarda sardorlar taqdimotini tashkillashtiradi.<br>Aniqlik kiritilishi lozim bo‘lsa, guruh muhokamasini jamoasiga havola etadi.<br>2.5. Mavzular asosida berilgan ma’lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirokchi talabalarni rag‘batlantiradi. | Kichik guruhlarga bo‘linadilar. Topshiriqlar bo‘yicha ishlaydilar. Faol qatnashadilar, taqdimot uchun materiallar tayyorlaydilar Guruhdan sardor tanlashadi, uning taqdimotida hamkorlik qiladilar. Savollarga javob beradilar. Tinglaydilar. |
| **3. Yakuniy bosqich** | 3.1. O‘quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.<br>3.2. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlili qiladi va o‘zlashtira olmagan joylarini qayta o‘qib chiqishni tavsiya etadi. | Tinglaydilar. |

**10.1 -Ilova**

**“MUSTAQILLIK MAFKURASINING VATANIMIZ KELAJAGI, XALQIMIZNING ERTANGI KUNI, MAMLAKATIMIZNING JAHON HAMJAMIYATIDAGI ROLI VA AHAMIYATI”**
**mavzusidagi amaliy mashg‘ulot ta’lim texnologiyasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta’lim beruvchi** | **Ta’lim oluvchilar** |
| **Tayyorlov bosqichi** | Mavzuni aniqlaydi, ta’limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Ekspert guruhlar ish natijalarini rag‘batlantirish mezonlarini ishlab chiqadi (2-ilova) | |
| **1. O‘quv mashg‘ulotiga kirish bosqichi** | 1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutiladigan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi va dolzarbliligini asoslaydi. 1.2. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarga ta’rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so‘rov o‘tkazib talabalar bilimlarini faollashtiradi. | Savollarga javob beradilar |



